

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK 81.512.133:81:3734

NORMATOVA DILFUZA ABDUMALIK QIZI

O'ZBEK SAVDO-SOTIQ LEKSEMALARINING LEKSIKOGRAFIK
XUSUSIYATLARI

70230101-Lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:



f.f.d., prof. Maxmaraimova Sh.

Termiz-2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 2-apreldagi № 20-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan. Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida tayyorlangan.


Magistrlik dissertatsiyasining elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb-sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:




Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (46-raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi 43-uy).


Ilmiy rahbar:

 f.f.d., prof. Maxmaraimova Sh.

Kafedra mudiri:

 f.f.d. (PhD) Amonturdiyev N.

Magistratura bo'limi boshlig'i:

 p.f.f.d. (PhD) Narbayev A.



KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mustaqillik yillarida ta'limga va ma'naviyatga yangicha yondashuv va yangicha munosabat bu sohalarining taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Aynan mustaqillikka erishganimiz o'zbekistonliklarga, o'zbek tilshunoslari oldiga yangidan yangi vazifalar qo'ydi. Zotan, "Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim"¹.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tashqi iqtisodiy aloqalarning yanada rivojlanishi, dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarga keng yo'l ochilishi o'zbek tilida yangi iqtisodiy terminlar, ular orqali esa savdo-sotiqqa doir atamalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Shu boisdan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida savdo-sotiq terminlarini lug'atshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yangi savdo-sotiq terminlarining shakllanish manbalarini, umumtilda qo'llanish doirasini, mazkur tizimda ro'y berayotgan kamchiliklarni va ularni bartaraf yetish yo'llarini aniqlash kabi qator masalalarni o'rganish zarurati paydo bo'lmoqda. Bundan tashqari hozirgi o'zbek tilida qo'llanilib kelinayotgan savdo-sotiq terminlarini to'plash va sistemalashtirishni ham zamonaviy o'zbek tilshunosligi uchun muhim va dolzarb vazifadir.

So'nggi yillarda miqdoran ortib borayotgan yangi savdo-sotiq terminlari o'zi ifodalagan mazmunni to'laroq ifodalashga xizmat qilsa-da, ularni amalda qo'llash va esda saqlab qolish ancha noqulaydir. Shuni ham aytish kerakki, tilda an'anaviy tarzda qadimdan saqlanib kelinayotgan savdo-sotiq atamalari bilan zamonaviy savdo-sotiq terminlari o'rtasida juda katta farq bor. Qadimgi savdo-sotiq atamalarining miqdori ancha cheklangan bo'lsa, hozirgi yangi davr, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo-sotiq terminlariga ehtiyoj ortishi munosabati bilan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони //http://lex.uz/docs/4561730

iqtisodiyot sohasiga oid terminlar beqiyos boyib bormoqda. Bu esa tadqiqot mavzuyimiz dolzarbligini yanada oshiradi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. XX asrda o‘zbek lug‘atchiligi rivojiga S.Rahmatiy, A.Qodiriy², Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov³, A.Ma‘rufov⁴, Sh.T.Rahmatullayev⁵ va boshqalar munosib hissa qo‘shdilar. va boshqalar munosib hissa qo‘shdilar. Respublika mustaqilligi tufayli o‘zbek leksikografiyasi oldiga yangi davr talablariga javob beradigan ensiklopedik va lingvistik lug‘atlar yaratish vazifasi qo‘yilgan va bu vazifa o‘z o‘rni bilan amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda leksikografiya, ayniqsa, kompyuter leksikografiyasi bugungi davrning asosiy fanlaridan biriga aylandi. Bir necha o‘n yillar davomida mavjud bo‘lgan an’anaviy qo‘llanma va qo‘lda yozilgan leksikografik amaliyotdan yangi qog‘ozsiz axborot texnologiyalariga o‘tish rivojlanmoqda. Binobarin, kelajak lug‘atshunosligi – kompyuter leksikografiyasi rivoji uchun xizmat qiluvchi tadqiqotlar o‘z dolzarbligi bilan hamisha ahamiyatlidir, shu jumladan, bizning tadqiqotimiz ham.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbek tilida savdo-sotiq leksikasining leksikografik xususiyatlarini ochib berish, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan leksikografiyaga oid manbalarning savdo-sotiqqa oid leksikasining qo‘llanilish doirasini aniqlash.

Bunda vazifalarni bajarish ko‘zda tutiladi:

-o‘zbek tili leksikasida savdo-sotiqqa oid so‘zlarning o‘rganilish tarixini ilmiy-tanqidiy baholash;

-o‘zbek tili leksikasida kiyim-kechakka oid so‘zlar leksikografiyasini tuzish;

-o‘zbek tili leksikasida oziq-ovqatga oid so‘zlar lug‘atini tuzish;

² .Раҳматий С, Қодирий А. Русча-ўзбекча тўла сўзлик луғати, 2 жилдли. – Қозон, 1934.250 Б.

³ Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент -Ўқитувчи, 1978.190 Б.

⁴ Ма‘rufov А. Paronimlar lug‘ati.-Toshkent: “O‘qituvchi”, 1974.

⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.-Тошкент - Ўқитувчи, 1978; Раҳматуллаев Маматов Ш,Шукуров Р.Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. 1800 га яқин антоним жуфтлик. / Қўчқортоев И.К таҳрири остида. - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1980; Раҳматуллаев Ш. Ўзбектили омонимларининг изоҳли луғати. 497 омонифода остига бирлашувчи 1160 дан ортиқ лексема./ Қўчқортоев И таҳрири остида. - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1984; Раҳматуллаев Ш., Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг имло луғати. - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995.

-o‘zbek tili leksikasida chorvachilikka oid so‘zlar lug‘atini tuzish;
-bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida leksikografiyaning o‘rni va ahamiyatini belgilash.

Tadqiqotning obyekti va predmeti sifatida o‘zbek tili leksikografiyasiga oid Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk”, “Abushqa”, Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma”, Mirzo Mahdiyxonning “Sangloh” va boshqa asarlar hamda ularda izohlangan savdo-sotiqqa oid so‘zlar tanlandi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari: Asosan, lingvistik, tavsiflash, tasniflash, uslubiy va qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

-o‘zbek tili leksikasida savdo-sotiqqa oid so‘zlarning o‘rganilish tarixini yoritish;

-savdo-sotiqqa oid so‘zlar lug‘atini tuzish;

-o‘zbek tilshunosligida savdo-sotiqqa oid so‘zlar leksikografiyasini tuzishning ahamiyatini ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Ushbu ilmiy tadqiqot ishida o‘zbek tili leksikasida savdo-sotiqqa oid so‘zlar leksikografiyasi va ularning turlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari hozirgi o‘zbek adabiy til tahliliga oid, leksikografiyaning tilshunoslikda tutgan o‘rni va uslubiy xususiyatlariga oid izlanishlarni yangi ma‘lumotlar bilan boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalardan tilshunoslik, leksikografiya va korpus lingvistikasi sohalarida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilmaviy tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, yetti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 70 sahifadan iborat.

I BOB. LEKSIKOGRAFIYA TILSHUNOSLIKNING BIR BO‘LIMI SIFATIDA

1.1. O‘zbek tilshunosligida leksikografik tadqiqotlarning tadrijiy rivoji

Leksikografiya lotincha leksikos “so‘z”, grapho “chizmoq, yozmoq” so‘zlaridan olingan bo‘lib, lug‘at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limi. Binobarin, leksikografiya: “Men so‘z yozaman” yoki “Men lug‘atlar yozaman” degan ma‘noni bildiradi. Zamonaviy ma‘noda leksikografiya - bu nolingvistik, qomusiy lug‘atlardan farqli o‘laroq asosan lingvistik, lingvistik lug‘atlarni tuzish nazariyasi va amaliyoti. Leksikografiya ilmiy fan sifatida murakkab ammo leksikografiyaning belgilovchi xususiyati uning amaliy yo‘nalishidir. Har xil turdagi lug‘atlarning butun xilma-xilligi (normativ, o‘quv, tarjima, terminologik, mafkuraviy etimologik) lug‘atning maqsadli belgilash asosida amaliy yo‘nalish oladi.

Lug‘atlarga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi, lug‘at turlarining xilma-xilligi bu sohaning istiqbolidan darak beradi. Lug‘atlar taraqqiyotida qadimdan bizning davrimizgacha qo‘lyozma, toshbosma tarzida yetib kelgan asarlarning o‘rni beqiyos. Sharq qo‘lyozmalar fondida IX asrdan to XX asr boshlariga taalluqli bo‘lgan arab, fors va turkiy tillardagi 25977 jild qo‘lyozma, 39107 jild toshbosma va bosma asarlar, 5000 dan ortiq tarixiy hujjatlar saqlanmoqda⁶.

Dastlabki tuzilgan lug‘atlar umumlashgan, universal xususiyatga ega bo‘lgan. Lug‘atlarning turli shakllari, ko‘rinishlari soha taraqqiyotining keyingi davrlarida yuzaga kelgan. O‘zbek leksikografiyasining taraqqiyot tarixini uch davr asosida kuzatish mumkin:

1. Eng qadimgi lug‘atlar. Ular XI asrdan XIII asrga qadar yaratilgan bo‘lib, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” nomli mashhur asaridan boshlanadi⁷. Bu davrga yana Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddamat-ul-adab»,

⁶ Хасаний М, Ҳабибуллаев А. Адабий манба шунослик ва матншунослик назарий масаллари. - Тошкент, 2012-Б.64.

⁷ Махмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. 3 жилдлик. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. 113.Б.

mualliflari noma'lum asarlardan "Tarjumon turki va ajami va mo'g'uli", "Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug'atit turkiya" kabi lug'atlarni kiritishimiz mumkin⁸.

2. XV — XIX asrning birinchi yarmi lug'atchiligi. Bu davrni asosan Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar tashkil etadi. Alisher Navoiy asarlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish shoirning hayotligi chog'idayoq boshlangan edi. Bu qiziqish keyingi asrlar davomida yanada ortib bordi. Buni Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan bir qancha lug'atlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin: Tole' Imoniy Hiraviyning "Badoye' ul-lug'at" (1405), "Abushqa" (XVI asr), Muhammad Mahdiyxonning eski o'zbekcha-forscha "Sangloh" (1748), Ya'qub Chingiyning "Kelurnoma" va h.k.⁹.

3. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tuzilgan lug'atlar. Keyingi asrlarda o'zbek leksikografiyasi an'analari davom etdi va rivojlandi. XVII-XIX asrlarda bir qator lug'atlar maydonga keldi: Shayx Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy", Muhammad Ya'qub Chingiyning "Kelurnoma", Muhammad Rizo Xoksoning "Muntaxabu-l-lug'ot" va "Zubd ul-lug'ot", Is'hoqxon Ibratning "Lug'ati sita al-sina" asarlarini misol qilib keltirish mumkin¹⁰. XIX asr oxiri va XX asrning 1-choragida turli sabab va ehtiyojlar, davr taqozosi bilan Turkistonda ikki tilli lug'atshunoslik rivoj topdi, o'nlab ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar, so'zlashgichlar tuzilib, nashr etildi. Ushbu davrda yaratilgan lug'atlarga Sharq qo'lyozmalar markazida saqlanayotgan toshbosma asarlar: V.Nalivkin va M.Nalivkinalarning

1884-1912-yillar mobaynida bir necha marta nashr etilgan "Русско-сартовский и сартовско-русский словарь", Ashurali Zohiriy tomonidan 1927-

⁸ Рустамов А. Махмуд Замахшарий. -Т.: EXTREMUM PRESS, 2010; "Таржумон"-XIV аср ёзма обидаси. - Тошкент: Фан, 1980; Kitob-i mesmu-i tercuman-i turki ve acemi ve mugali. - Ankara, 2000; Дадабоев Х "Замонавий узбек лексикографияси ва терминологияси" модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. - Тошкент, 2016.

⁹ Умаров Э.А. Эски ўзбек луғатлари. - Тошкент, 1992; Умаров Э. А. Янги топилган Навоий асарлари луғати // Узбек тили ва адабиёти, 1991, № 4. - Б. 76-78; Фаттохов Х. Узбек лексикографияси тарихига бир назар // Узбек тили ва адабиёти, 1981, № 3. - Б. 54-55; Мухиддинова К. "Санглах" Мирзы Мухаммеда Мехдихана: Автореф. дисс. ... канд.филолог.наук. - Ташкент, 1971.

¹⁰ Хусанов Н. "Луғати чигатойи ва турки усмонийда изохлаш Узбек тили ва адабиёти" 1982. № 1-Б. 63- 65; Мухаммед Якуб Чинги. Келурнаме. (Староузбекско-таджикско-персидский словарь XVII в.). - Ташкент, 1982; Мирзо Мехдихон. Мабони ал-луғат.-Тошкент, 2008; Хоксор. Мунтахаб-ул луғат.-Тошкент, 1984; Олим Усмон. Ўзбекистонда рус тилининг илк таргиботчилари.-Тошкент, 1962.

yillarda tuzilib, nashr ettirilgan 2 jildlik “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at”¹¹ Ular keyingi davrlarda O‘zbekistonda yaratilgan ikki tilli lug‘atlar uchun asos bo‘ldi. Bundan tashqari, 1907 yilda Shayx Utor Obazgildin tomonidan yaratilgan, 42 sahifadan iborat “Ruscha-tatarcha lug‘at”, 1914 yil Mirzo Abdulloh bin Abdulgaffor Tabriziyning “Forscha-ruscha lug‘at”i, Ali Sayyidining Istanbulda 1909 yilda chop etilgan “Lug‘ati ajnabiy”¹², Abdulloh Shenosiyning tatar tilida 1916 yilda chop etilgan “Hikmati tabiiyya”¹³ lug‘ati, N.Rovijning 1928-yil “Mustafo Kamol posho esdaliklari” nomli tatarcha lug‘ati, K.Yudaxinning 1927-yilda chop etilgan “Qisqacha o‘zbek-rus lug‘ati”¹⁴ asarlarini ham misol qilib keltirish mumkin.

Leksikografiya ma‘lum amaliy maqsadlar uchun semantik faktlarni aniqlash va aniqlashning optimal vositalarini ishlab chiqadi. Yangi lug‘atlar uchun optimal strategiyani ishlab chiqishdagi asosiy muammo lug‘atlarni tarkibi bo‘yicha ham ulardagi ma‘lumotlarning yetarliligi nuqtayi nazaridan ham haqiqiyliги muammosidir. Leksikografiya keng ma‘noda til birliklari inventarlarining barcha to‘plamini ularga tegishli bo‘lgan u yoki bu turdagi ma‘lumotlarni qamrab oladi. Semantik ma‘lumotlarni aks etirish eng boy va qiyin.

Leksikografik faoliyat bir necha bosqichlarga bo‘linadi:

- lug‘atning tashqi parametrlariga (maqsad, foydalanuvchi doirasi, axborot sohasi) tegishli talablar tizimini ishlab chiqish;
- lug‘atning ichki parametrlariga (tavsif birliklari, mentallikning asosiy xususiyatlari: lug‘at ma‘lumotlarining hajmi, tuzilishi, turlari) oid talablar tizimini ishlab chiqish;
- tanlangan pastki tillarni rasmiy inventarizatsiya qilish (matnlarni tanlash, kontekstlarni tavsiflash, dastlabki lug‘atlarni yig‘ish);

¹¹ Тоғаев Т.М. Ашурали Зокирий ва укинг лингвистик мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Тошкент, 2005

¹² Абдулла Шеносий.Хикмати тарбия.2163.Б.1917.

¹³ Али Саййид.Луғати ажнабий.-Истанбул.210 .Б.1909.

¹⁴Yudaxin K. Qisqacha o‘zbek-rus lug‘ati. 1927
B.3816.

- ta'riflangan birliklar semantikasining eksperimental tadqiqotlari (matnlarni distributiv tahlil qilish, ona tilida so'zlashuvchilar bilan testlar);
- eksperimental ma'lumotlarni umumlashtirish;
- tegishli metatilda ta'riflar qurish va ularni yangi tajribalar jarayonida tekshirish;
- har bir til birligi haqida qo'shimcha ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish;
- lug'at yozuvlarini ro'yxatga olish;
- lug'at yozuvlarini tizimli tahlil qilish va tartiblash;
- yordamchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan holda lug'atning butun dizayni.

Leksikografiya nazariyasining predmeti lug'at tuzish tamoyillari va uslubiyatlaridir. Leksikografiya tilshunoslikning lug'atchilik bilan shug'ullanuvchi sohasidir. Lug'atlar tildagi so'zlarni, iboralar, maqol-matallar va turli nomlarni ma'lum tartibda o'z ichiga olgan kitoblardir. Bunday lug'atlar o'tmishda qo'lyozma shaklida ham bo'lgan.

Leksikografiyaning vazifa doirasiga quyidagilar kiradi:

- a) lug'at tuzish printsiplari va metodikasini ishlab chiqish;
- b) lug'at tiplari va turlarini aniqlash;
- c) lug'atshunoslarning ishini tashkil qilish;
- d) lug'at tuzish uchun asos bo'ladigan kartoteka fondini yaratish;
- e) lug'atchilik tarixini o'rganish;
- f) lug'at tuzish bilan shug'ullanish.

Leksikografiyaning aspektlari:

1. Tarixiy-filologik lug'atlar tarixini jamiyat madaniyati tarixining bir qismi sifatida o'rganish.
2. Gnoseologik (kognitiv) -lug'atlarni bilimlar xazinasini sifatida o'rganish.
3. Semantik-leksikologik-tilning leksik-semantik tavsifi uchun lug'atlardan foydalanish.

4. Amaliy (eng muhim)-amaliy leksikografiya lug‘atlarni lug‘atlarga qo‘yiladigan muayyan amaliy talablar nuqtai nazaridan takomillashtirishga qaratilgan.

So‘nggi o‘n yilliklarda bir qator mamlakatlarda qayd etilgan amaliy leksikografiyaning jadal rivojlanishi ilmiy-texnikaviy inqilob va axborot “portlashi” ,gumanitar fanlar bo‘yicha aloqalarning kengayishi, ba’zi lug‘atlarning faoliyat ko‘rsatishi kabi omillarning ta’siri bilan bog‘liq. Tillarni xalqaro aloqa vositasi sifatida, tilni ilmiy tavsiflash va normallashtirish, nutq madaniyatini oshirishda lug‘atlarning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Ular jamiyatning ma’lum bir davrda ega bo‘lgan bilimlar to‘plamini yozibgina qolmay, balki zamonaviy ilmiy bilimlar uchun ishonchli vosita bo‘lib ham xizmat qiladi.

Zamonaviy leksikografiya mustaqil fanlararo fan sifatida shakllandi. Uning obykti (til tizimi butunligi va ko‘p o‘lchovligi: leksik-semantik, morfologik, fonologik tizimlar, frazeologik, so‘z yasalish quyi tizimlari) va predmetini (lug‘atlarni tuzish nazariyasi va amaliyoti) farqlash kerak. Lug‘atlarni soni va sifati ortib bormoqda.

Leksikografiyaning maxsus usullari va metatillari takomillashtirilmoqda. Leksikografiya ilmiy atama sifatida nisbatan yaqinda keng qo‘llanila boshlandi. Masalan, Brockhausning ensiklopedik lug‘atida va Efron (1896, XVII jild) “*leksikografiya*” , avvalo, lug‘atlar ko‘zlangan maqsadga ko‘ra dastlab ikki turli bo‘ladi. Bular:

1. *Ensiklopedik (qomusiy) lug‘atlar;*
2. *Filologik (lingvistik) lug‘atlar.*

Bu ikki turdagi lug‘atlar lug‘at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug‘atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o‘z ichiga olsa, ensiklopedik lug‘at, ma’lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga olsa, filologik lug‘atlar hisoblanadi. O‘zbek leksikografiyasining tarixi Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yuzaga kelgan “Devoni lug‘otit turk”¹⁵ nomli lug‘atiga borib taqaladi.

¹⁵ Махмуд Кашгарий. Девону луғотит турк, уч томлик, III том. – Тошкент: «Фан», 1960. 387-388

Ensiklopedik lug‘atlar-ma’lum bir xalqning madaniy, ma’naviy, tarixiy, ilmiy, siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o‘z izohini topadi. Aniqroq aytganda, ensiklopedik lug‘atlarda tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalar, tarixiy voqea-jarayonlar, buyuk shaxslar, ilm fanidagi kashfiyotlar, davlatlar, shaharlar haqida ma’lumot beriladi. Demak, bu tipdagi so‘zlarga emas, balki shu so‘zlar yoki so‘z birikmalari vositasida nomlangan hodisalarga qaratiladi.

1.2. Turkiy lug‘atshunoslikda savdo-sotiq leksikasi talqini

Professor E. Begmatov o‘zbek tili ilmiy terminologiyasida terminlarning uch turi (1) tarixiy-an’anaviy terminlar; 2) terminologik tizimning boyishiga bois bo‘lgan nisbatan yangi termin-o‘zlashmalar; 3) o‘zbek tili so‘z yasovchi qoliplari negizida hosil qilingan terminlar) farqlanishini yozib, tarixiy-an’anaviy terminlar qatorida o‘zbek terminologiyasining o‘zagini tashkil qilgan: *irim, pul, oldi-sotti* singari ko‘pgina terminlarni tilga oladi¹⁶.

H.Dadaboyev o‘z vaqtida eski turkiy til va eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishda bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlari qiyosiy-statistik tahlilini amalga oshirgan edi. Tahlil XI-XIV asr turkiy obidalar tilida qayd etilgan 700 ta ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan 645 tasi o‘zbek adabiyoti klassiklari asarlari tilida deyarli fonetik va semantik o‘zgarishlarsiz qo‘llanishda davom etganini ko‘rsatgan edi¹⁷.

O‘zbek lug‘ati tarixi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug‘at faqat so‘zlar va ularning ma’nolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi, iqtisodiy terminologiyasi kabi keng ma’lumotlar manbai hisoblanadi. Shu bilan birga u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug‘atlardandir. Shu kabi, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asari, eski lug‘atlardan:

¹⁶ Begmatov.Э.Хозирги ўзбек тилининг лексик қатламлари – Тошкент, 1985.

¹⁷.Дадабаев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент, 2019.Б.115.

«Abushqa» (16-a., Turkiya) izohli lug‘ati, Tole Imoni Hiraviyning “Badoye ul-lug‘at”, Muhammad Rizo Xoksoning “Muntaxab ul-lug‘at”, shuningdek, Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma”, “Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoiy va turki usmoniy” (“Chig‘atoycha-turkcha lug‘at”) kabi lug‘atlarda ham turkiy qavmlar iqtisodiy atamalariga u yoki bu darajada keng o‘rin berilgan.

Jumladan, Jamoliddin Turkiyning bizgacha yetib kelgan “Kitob bulgat al-mushtoh fi lug‘at-it-turk va-l-hifchoh” lug‘atida tijorat ashyolari: *yaldыгыт va сырча, ыбар, yanjo‘, assы, ziyan* kabi leksemalar izohlangan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan turkiy tillar leksikasini izohlovchi o‘nlab maxsus lug‘atlar vujudga kelib, bu lug‘atlarning yaratilishidagi bosh maqsad, asosan, O‘rta Osiyo xalqlari tilini, urf-odatlarini va boshqa jihatlarini o‘rganish, ular bilan yaqindan tanishish edi. Bu borada L.Z.Budagovning 2-jildli “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” (“Turkiy lahjalar qiyosiy lug‘ati”, SPB., 1869-1971), V.V.Radlovning 4-jildli “Опыт словаря тюркских наречий” (“Turkiy lahjalar lug‘ati tajribasi”, SPB, 1893-1911), V.P.Nalivkin va M.Nalivkinalarning 1884-1912-yillarda qayta-qayta nashr etilgan “Русско-сартовский и сартовско-русский словарь” (“Ruscha-sartcha va sartcha-ruscha”), V.A.Alekseevning “Самоучитель сартовского языка” (Tashkent, 1884 g.), S.Lapinning “Карманный русско-узбекский словарь с приложением краткой грамматики узбекского языка” (1895), A.Afanasevning “Словарь сартовских слов с главнейшими грамматическими правилами” (-Skobelev, 1908), N.Budzinskiyning “Грамматика сартовского языка и русско-сартовские разговоры” (-Ташкент, 1910 г.), hamda “Материалы к изучению наречия сартов русского Туркестана” (-Ташкент, 1908 г.) kabi ko‘pgina boshqa asarlar va alohida lug‘atlarni ko‘rsatish mumkin¹⁸. Mazkur lug‘atlarda ham o‘zbek savdo-sotiq leksikasiga doir birliklarning ayrim izohi keltirilgan.

¹⁸ Наливкин, В.П. Русско-сартовский и сартовско-русский словарь общепотребительных слов с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда / Сост. В. Наливкин и М. Наливкина. - Казань : Унив. тип., 1884.с-478

Agar hozirgi kungacha 10 ga yaqin xorijiy til bilan o‘zbekchani qiyoslovchi ko‘plab tarjima lug‘atlari, fan sohalariga oid 100 dan ziyod bir, ikki va uch tilli terminologik lug‘atlar yaratilgan bo‘lsa, bularning katta qismida savdo-sotiq va iqtisodiy atamalarga keng o‘rin berilganini ko‘rishimiz mumkin.

Ayniqsa, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”¹⁹ misolida so‘zimizning yorqin dalilini ko‘rishimiz mumkin.

Turkiy tillar tarixida qo‘llangan iqtisodiy va savdo-sotiqqa oid terminlar tahlili o‘zbek turkshunosi H. Dadaboyevning monografiyasida ham batafsil tahlilga tortilgan²⁰. Unda iqtisodiy terminlar tarixiy-etimologik aspektda o‘rganib chiqilgan. Ishda iqtisodiy terminlar muallif tomonidan o‘z va o‘zlashgan qatlamga ajratilib, ularning leksik-semantik hamda savdo va moliya sohalari terminlarining shakllanishiga turtki bo‘lgan ekstralingvistik omillarning ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotchi eski turkiy yozma yodgorliklarida qayd etilgan savdo va moliya terminologiyasining semantik tasnifini ishlab chiqqan. Unga *savdo karvoni* va u bilan bog‘liq tushunchalarni hamda turli moliya operatsiyalarining nomlarini, savdo sohasi bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, savdo muassasalari, joy va predmetlari nomlari, pul birliklari va to‘lov turlarini ifodalovchi terminlar kiritilgan.

Turkiy tillardagi iqtisodiy, savdo-sotiq terminlar qatlami, uning kelib chiqishi, yasalishi va genetik tadqiqi masalalari fanda muayyan darjada o‘rganilgan. Chunonchi, X.Zulfikar, Sh.Akalin, M.Ergenekon singari turkologlarning izlanishlarida termin masalasi va turkiy tillar iqtisodiy terminlari tahlili qiyosiy yondashuv asosida o‘rganilgan²¹.

Devonu lug‘otit turk. Turkiy tilni o‘rganish bo‘yicha yaratilgan filologik tadqiqotlarning yeng eskisi Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) asaridir. Asar hijriy 469-yili (melodiy 1076-1077 yilda) yozib tugallangan. Kunimizgacha “Devonu lug‘otit turk”ning bir qo‘lyozmasi

¹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2 жилдли. – Тошкент: ЎзМЭ, 1981, -Б.630

²⁰ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV. – Ташкент, 1991.

²¹ Hamza Zulfikar. Türk Terimcilik Tarihi İçinde Peyami Safa // TDK yayınları Dil ve Edebiyat. Sayı: 607, 2002; Şükrü Haluk Akalın. Türk dili. Yabancı sözlere karşılıklar ve terim çalışmaları // TDK yayınları Dil ve Edebiyat Dergisi. Sayı: 613, ocak 2003. S.9-1; Ergenekon M. Komparativный анализ лингвистической терминологии в русском и турецком языках. Анкара, 2015;

saqlangan. U hijriy 664 (milodiy 1266 yilda) kotib Muhammad ibn Abubakr ibn Abdulfath as-Saviy ad-Damashqiy ko‘chirgan. Uning yozishicha, mazkur qo‘lyozma Mahmud Qoshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan bitilgan nusxasidan ko‘chirilgan.

Asarda iqtisodiy atamalar ham izohlangan bo‘lib, qadimgi turkiy tildagi ko‘rinishlari quyidagilardir(1-rasm):

1-rasm

1) oғur

اغور oғur — бадал, эваз; ўринма-ўрин, бошма-бош;
 اتقا اغور الاديم атқа оғур алдим—от эвазига [бошма-
 бош] олдим (оғузча).

2) ўлуш

الوش ўлуш — халқ орасида ҳисса тақсимлаш ёки улаш-
 моқ. Сўз охиридаги ش ҳарфи ك га алмашиган-
 дир. Чунончи, رتک تختک сўзлари ўрнида
 قد جعل ریش تختش سرّاً қўлланганда ш, к га алмаш-
 ганн каби.

3) асіғ

اسیغ асіғ — фойда.

1-rasm. “Devonu lug‘otit turk” tijorat va iqtisodiyotga oid atamalar izohiga namuna

“Attuhfatu-z-zakiyatu fillug‘atit turkiya”. “Attuhfatu-z-zakiyatu fillug‘atit turkiya” (“Turkiy tillar haqida noyob tuhfa”)²² asari Misrda yaratilgan, uning bitta qo‘lyozmasi (Istanbul: Validuddin afandi kutubxonasi) ma’lum. Kitob “qipchoq tili” grammatikasiga bag‘ishlangan. Asar uch bo‘limdan iborat: kirish, arabcha-turkiy so‘zlik, grammatik qoidalar bo‘limi. Kirish qismida kitobning yozilish sababi, unda turkiy tilning qay lahjasiga asoslanganligi bayon etiladi. So‘ng turkiy alifbo va imlo qoidalari xususida ma’lumot beriladi.

²² Konkabayeva N.N. “At-Tuxfa az-zakiya fi el-lug‘at at-tyrkiya” yeskertkishine tarixilingvistikalik interpretatsiya. Tyrkitanu mamandig‘i boyinsha PhD filosofiya doktori dorejesin alu yshin dayindalg‘an dissertatsiya. <https://www.kaznu.kz/content/files/pages/folder17928/Ahdatpa%20Konkabaeva%20N.N..pdf>

“At-tuhfa”ning 2-bo‘limida savdo-sotiqqa xos birliklar berilgan (2-rasm)²³.

2-rasm

جِسْرَجِي — ж э р ч и (эшикма-эшик юриб савдо қилувчи). 25б—1

بَازِيرِ كَان — б э з и р к а н (савдогар). 8б—12

تَاجِيك — т э ж и к (савдогар). 8б—12

2-rasm. “At-tuhfa”da savdoga oid so‘zlarning berilishi

Asarda, shuningdek, zarflar misoliga *bazardaği*, *šanaqdaği* so‘zlari keltirilgan (AZFT,110).

“**Qutadg‘u bilig**”. Turkologiya sohasida eng ko‘p o‘rganilgan asar “Qutadg‘u bilig” hisoblanadi. Asar leksikasining asosini ijtimoiy-siyosiy, savdo-sotiq, harbiy, tibbiy terminlar, antroponimlar, oziq-ovqat va ichimlik nomlari tashkil etadi. Tadqiqotchi M.Xolmurodova mazkur asarda savdo-sotiq leksikasi 32 nomdagi mavzuviy guruhdan birini tashkil qilganini yozadi²⁴.

Shuningdek, L.Sindorov “Hibatul haqoyiq” leksikasi nomli tadqiqot ishida savdo-sotiq va pul munosabatlari bilan aloqador tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar: *arqiš* – “karvon», *asiğ* – “foйда”, *uçuz* – “arzon”, *uçuz näñ* – arzon narsa, *amānat* – “omonat”, *tawar* – “tovar”, *māl* – “mol, tovar”, *dinar* – “dinor” (pul birligi), *satiy*, *ayiç* ga to‘xtalgan. Amin bo‘lamizki, bunda *tawar*–“Tovar” so‘zi baynalmilal so‘z emas, turkiy chig‘atoy tiliga mansub bo‘lib, “mol, mulk” ma’nosini anglatgan.

“**Muqaddimatul adab**”. Ko‘p tilli lug‘at sanaluvchi “Muqaddimatul adab”(Adab ilmining boshlanishi)²⁵ asaridagi faktik material XII asr turkiy adabiy tilning leksikasi xususida to‘laqonli ma’lumot beradi. Asarda misollarni berish tartibi quyidagicha: boshlab arabcha misol, so‘ng uning forsha izohi va nihoyat,

²³ Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия (туркий тил (кипчоқ тили) хакида ноёб тухфа). – Тошкент: Фан, 1968.

²⁴ Холмуродова М. Кутадғу билиг» лексикаси: фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019.

²⁵ Махмуд Замахшарий. Муқаддимат ул адаб. Лейспиг 1850. Б.180

turkiy soʻzlik beriladi. Asarning 17-faslida *yogchi*, *yogʻ sotuvchi*, 21-faslida *dori sotuvchi*, 23-faslida savdoga oid soʻzlarni kiritgan muallif savdo leksikasini ifodalovchi soʻzliklar qatorida: *savdogar*, *mayiz*, *asal*, *shinni*, *talqon*, *saqich kabi oziq-ovqat*, *anor poʻchogʻi*, *oʻsma*, *sovun*, *surma* kabi 63 ta soʻzlikni kiritgan va izohlagan²⁶.

Bobga doir xulosalar

1. Leksikografiya maʼlum amaliy maqsadlar uchun semantik faktlarni aniqlash va aniqlashning optimal vositalarini ishlab chiqadi. Yangi lugʻatlar uchun optimal stratigiyaning ishlab chiqishdagi asosiy muammo lugʻatlarni tarkibi boʻyicha ham ulardagi maʼlumotlarning yetarliligi nuqtayi nazaridan ham haqiqiyliги muammosidir. Leksikografiya keng maʼnoda til birliklari inventarlarining barcha toʻplamini ularga tegishli boʻlgan u yoki bu turdagi maʼlumotlarni qamrab oladi. Semantik maʼlumotlarni aks etirish eng boy va qiyin.

2. Oʻzbek lugʻati tarixi Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lugʻat faqat soʻzlar va ularning maʼnolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlarini, geografik joylashuvi kabi keng maʼlumotlar manbai hisoblanadi. Shu bilan birga u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lugʻatlardandir. Mahmud Zamaxshariy oʻzining “Asos ul-balogʻa”, “Muqaddimat ul-adab” asarlari bilan ham amaliy, ham nazariy lugʻatning rivojiga ulkan hissa qoʻshdi.

3. XX asrda oʻzbek lugʻatchiligi rivojiga A.Zohiriy, A.Qodiriy, Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z.Maʼrufov, Sh.T.Rahmatullayev, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov va boshqalar munosib hissa qoʻshdilar. Respublika mustaqilligi tufayli oʻzbek lugʻati oldiga yangi davr talablariga javob beradigan entsiklopedik va lingvistik lugʻatlar yaratish vazifasi qoʻyilgan va bu vazifa oʻz oʻrnini bilan amalga oshirilmoqda.

²⁶ Исломов, З. “Муқаддиму-л-адаб” асарининг манбашунослик ва матншунослик тадқиқи [Матн] З. Исломов.-Тошкент:Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёти, 2020. - 336 б.

II BOB. O‘ZBEK TILIDA SAVDO-SOTIQ LEKSIKASINING O‘RGANILISH TARIXI

2.1. Diniy-ma’rifiy asarlar va eski lug‘atlarda savdo-sotiq leksikasining berilishi (XII-XVIII asrlar)

Muqaddas kitob – Qur’oni Karimda kishilik jamiyatining faoliyat turlaridan biri iqtisodiyot sohasidagi munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Chunki, iqtisodiy munosabatlarda insonlarning asosiy fe’l-atvorlari namoyon bo‘ladi. Qur’oni Karim ahkamlari insonlarga ilohiy farmoyish sifatida zamindagi barcha insonlarning bir ota-ona Odam alayhissalom va Momo Havo farzandlari, binobarin aka-uka, opa-singil ekanligiga asoslanadi. Jumladan, “Hujurot” surasining 13-oyatida “Ey insonlar, biz sizlarni bir ota (Odam alayhissalom) va bir ona (Momo Havo) dan yaratib yer yuzi bo‘ylab har xil xalq qabila va elatlar tarzida taratib qo‘ydik, toki sizlar bir-birlaringiz bilan tanishib, mehr-muhabbat hosil qilgaysizlar. Albatta, sizlarning Olloh nazdida eng hurmatlitrog‘ingiz taqvodorrog‘ingizdir. Albatta, Olloh bilguvchi va hamma narsadan ogoh zotdir”. Islomda “taqvo” deganda - solih, hayrli ishlarni ado etib, munkar, man qilingan, insoniyatni zavolga boshlaydigan ishlarni qilmaslik tushuniladi. Demak, taqvo insonlarning bir-biridan afzalligini belgilashdagi asosiy o‘lchovlardan biri hisoblanadi. Bu afzallik ma’naviy va ruhiy tarbiyalash bilan o‘zgalarni yashash va turmush kechirish huquqlarini e’tirof etish bilan shakllanadi.

Qur’oni Karimdagi iqtisodiy g‘oyalarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Ulardan biri eng avvalo halol mehnat, xususan dehqon, chorvador, hunarmandlar mehnati ulug‘lanadi, peshona teri bilan halollik asosida hayot kechirishga da’vat etiladi, barcha boylikning asosida mehnat yotishi uqtiriladi.

Ikkinchi guruh g‘oyalar – tijorat, ya’ni kengroq ma’noda esa bozor munosabatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, Niso surasida (29- oyat) “Mollaringizni o‘rtalarinigizga nohaq (ya’ni o‘g‘rilik, qaroqchilik, sudxo‘rlik, poraxo‘rlik, qimor kabi) yo‘llar bilan yemangiz! Balki o‘zaro rizolik bilan bo‘lgan savdo-sotiq orqali mol-dunyo qilingiz”, deyiladi. Biroq sudxo‘rlik, poraxo‘rlik kabi illatlar shar’iy jihatdan harom ekanligi qayta-qayta ta’kidlanadi. Uchinchi guruh

iqtisodiy g'oyalar esa, mulk va meros masalalariga qaratilgan. Mulkning muqaddasligi, bironing mulkiga xiyonat (ayniqsa omonatga xiyonat) qoralanadi, hatto biron odamning mol-mulkiga hasad qilish ham katta gunoh deb hisoblanadi. Yerga mulkchilik munosabati to'g'risida ham alohida fikrlar lo'nda bayon etilgan. Masalan Moida surasining 40-oyatida yerdan unumli foydalanib, olingan narsalargina insonga tegishli ekanligi ta'kidlangan. Islomda jamiyatning tengsizligi taqdiri azaldan deb tan olinadi, ammo halollik va to'g'rilikka buyuriladi, yolg'on ishlatish, o'g'rilik, mehnatsiz daromad topish man etiladi. Bu xatoga yo'l qo'yganligi uchun qattiq jazo choralari belgilanadi (Moida surasi, 38-oyat), "ammo kim bunday jabru-zulmdan keyin tavba qilib, o'zini tuzatsa, albatta olloh tavbasini qabul qilar" (39-oyat)²⁷.

Alloh Taoloning Qur'oni Karimda qarz olish va berish, meros, uni taqsimlash (4-sura, 8-oyat), yetim-yesirlarga muruvvat, xayr-ehson qilish haqidagi oyat karimalaridan kelib chiqadigan g'oyalar hamda soliq turlari va miqdori ham katta ahamiyat kasb etadi.

Amirning sovg'a olishi harom va qozining pora olishi dindan chiqishdir. Boylarning uyiga kamroq kiringlar, aks holda Tangrining sizlarga bergan ne'matlarini pisand qilmagan bo'lasizlar. Tilanchilik quyidagi uch toifadan birigagina joizdir:

1. *Xun to'lovchiga;*
2. *Og'ir qarzdorga;*
3. *Miskin qashshoq kishiga.*

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Markaziy Osiyo donishmandlaridan at-Termiziy, al-Buxoriylarning to'plagan Hadisi Shariflari islom olamida eng ishonchli hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslari islom ta'limotidagi fikhning tarkibiy qismini tashkil etadi. Vatandoshimiz Marg'inoniyning "Hidoya" asari shular jumlasidandir. "Al-Hidoya" asari 1178-yili Samarqandda yozilgan. Bu asar Xanafiya mas'habining fikh masalalari bo'yicha asosiy qo'llanmaga aylangan.

²⁷ Qur'oni Karim. Moida surasi, 38-39-oyatlar

“Al-Hidoya” ning birinchi kitobi to‘rt jildan iborat bo‘lib, har biri alohida muammolarni tahlil etadi. Bu kitob 1994-yildan professor A.X.Saidovning izohi bilan nashr etilgan. Kitobning 3-jildida:

- oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da’vo, iqrор bo‘lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish, pulni saqlashga berish, qarз berish, sovg‘a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, valiylik, majbur qilish, homiylik, bosqinchilik xususidagi masalalar yoritilgan.

Yuqorida Qur‘oni Karimda keluvchi savdo-sotiq so‘zlari to‘g‘risida to‘xtaldik. Mashhur turkolog A.Borovkovning “Лексика среднеазиатского Тefsira XII-XIII вв” nomli lug‘atida ham muqaddas kitobimizda keltirilgan ayrim savdo-sotiqqa taalluqli so‘zlar quyidagicha izohlanganini ko‘rish mumkin (3-rasm)²⁸.

Qur‘on-i karimning tarjimalari va tafsirlarining eng eskisi “Turkiy tafsir” (“O‘rta Osiyo tafsiri”) otini olgan. Qo‘lyozmasi Qarshidan topilgan. Asar Qur‘on-i karim suralarining tarjimasini va sharhidir. Tarjimon va qo‘lyozma kotibining oti ma’lum emas. Asarning tuzilgan davri va qo‘lyozma sanasi ham noma’lum. Matnning til xususiyatlariga asoslanib, asar XII–XIII yuzyilliklarda yaratilgan deya taxmin etadilar.

Asarning dastlabki bo‘limi XLIX suraga qadar Qur‘on-i karim tarjimasidir. So‘ngra ayrim bo‘limlarning sharhi beriladi. Suralar tarjimasida satr osti o‘girmalari arabcha matnga monand bo‘lib, turkiy tilning sintaktik qurilishiga uqadar mos tushavermaydi. Tafsir qismi bunday emas, undagi matn turkiyning gap qurilishi bo‘yicha bitilgan.

A.K. Borovkovning “Leksika sredneaziatskogo tefsira XII–XIII vv.” kitobi ana shu “Turkiy tafsir”ning tiliga bag‘ishlangan (qarang: Borovkov 1963). Kitob ikki bo‘lim: kirish va glossariy (so‘zlik)dan iborat.

²⁸ Боровков А. Лексика среднеазиатского Тefsira XII-XIII вв. – М., 1963.

Yodgorliklardan olingan misollar transkripsiyada. Transkripsiya uchun kirill harflari asosga olinib, ayrim tovushlar uchun lotin harflari va uning turkiy transkripsiyaga moslashtirilgan shakllari aralashtirilgan. Bu holatni savdoga oid leksemalar izohida ham ko‘ramiz:

3-rasm

3-rasm. “Лексика среднеазиатского Тefsира XII-XIII вв”da savdo-sotiqqa taalluqli so‘zlar izohi

базіргән 'торговец', 'купец'; 'торг', 'караван'; *қачан көрсәләр*

бәзіргәнни (بازركان نى) *ја тақі о јинні јүгүрүшүрләр анің таба...* (89^б, 1) 'как. только завидят купца (торг) или же забаву, бегут туда...' (Сура 62, ст. 11). — РСл., IV, 1545 *базырган*; ср. 1633 *бэзэргэн*; КК, ЗВО, XV, стр. 2 *بازركانك* '...купцы вышли в путь...'; *اولوسى طوقلدى*

схвачен'; туркм. (устар.) *безірген* 'купец', 'торговый караван'.

бәзіргәнлик 'торговля', 'занятие торговлей'; *аја дәшләт қилурсіз бәзіргәнлик* (بازركان ليك) *ўзә...* (86^б, 14) 'о вы, [которые] обогащаетесь торговлей'; ...*әдгүрәк турур о јиндін тақі бәзіргәнликдін* (بازركان ليكدين) (89^б, 14) '...лучше забавы и торговли...' (Сура 62, ст. 11).

Misollar o‘tmishda *savdogar* leksemasi *bazirgan* shaklida bo‘lganini isbotlaydi. Demak, hozirgi zamon o‘zbek tilidagi *bozor* leksemasi o‘tmishdagi *savdo* leksemasining fonetik o‘zgarishga uchragan varianti bo‘lib, qadimda uning *bazirgan*, *bezergen*, *bezirgen* shakllari nutqiy iste’molda bo‘lgan. “Savdo-sotiq” ma’nosi esa *bazirganlik* (savdo bilan mashg‘ul bo‘lish) leksemasi orqali voqelangan. Misollar olim tomonidan keltirilgan illyustrativ misollar bilan dalillangan.

Shu kabi, tilshunos sotiq leksemasiga to‘xtaladi va uni quyidagicha sharhlaydi (4-rasm):

satib ‘продажа’, ‘торговля’; *satibi āzgu bolbaj* (137⁶, 2) ‘торговля их будет хорошей’. — РСл., IV, 379; Мал., 420; МК.

satın: *satın al-* ‘покупать’, ‘выкупать’; *ajtdi arta tursalar xalqlar iki türlü bolurlar biri ol kim kändü özin satın alur adad qılur bir ol kim kändü özin satar hālāk qılur* (135, 12) ‘сказал: с утра вставая люди бывают двух родов — один себя выкупает и освобождает, другой продает себя и губит’. — РСл., IV, 378; МК *satınmaq*; АФ, 094 *satун*.

Parchadan ko‘rinib turganidek, *sotib olmoq*, *savdo-sotiq* leksemalari turkiy tilda *satiq*, *satin*, *satig‘*, *satinmaq*, *satun* shaklida mavjud bo‘lgan²⁹.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham iqtisodiy g‘oyalar muhim o‘rinni egallaydi. Uning asarlarida va faoliyatida ayniqsa tijorat, savdo masalalari ancha mukammal yoritilgan. A.Navoiy asarlarida savdogarlik ishi ma‘qullanadi, lekin tovlamachi va chayqovchi qattiq tanqid qilinadi. A.Navoiy davlat arbobi sifatida mamlakatni tinch saqlash, obodonlashtirish ishiga katta hissa qo‘shdi. U tirikligida mingta inshoot qurishga va‘da bergan va va‘dasining ustidan chiqqan, ko‘pgina madrasa, shifoxona, hammom, ko‘prik, rabot va boshqalarni o‘z hisobidan qurdirgan. Mehnatning inson va jamiyatdagi o‘rniga yuksak baho bergan.

Masalan, 1482 yilda yozilgan “Vaqfiya” asarida A.Navoiy shaxsan o‘zining yerlaridan olingan daromad misolida daromadning o‘z xarajatlari va oila ahliga yetarli qismini olib qolib, qolgan qismini aholining foydali mehnatiga sarflashga chaqirgan. Boylik topishning ikkinchi yo‘liga esa, ya‘ni o‘g‘rilik, tamagirlik va zo‘rlik hisobiga boylik orttirishga Navoiy keskin qarshi chiqadi. U bunday ishlardan nafratlanadi va shu yo‘l bilan boylik orttirayotgan kishilarni jamiyat hisobiga yashayotgan va boylik orttirayotgan parazit qatlamdir, deb ta‘riflaydi.

²⁹ Боровков А. Лексика среднеазиатского Тецсира XII-XIII вв. — М., 1963.

A.Navoiy ijodining durdona asarlaridan biri 1500-yilda yozilgan “Mahbub-ul-qulub” asaridir. Ushbu asarda Navoiyning iqtisodiy fikrlari mujassamlashgandir. Navoiyning fikricha, dehqonlar, hunarmandlar va chet el bilan aloqasi bor savdogarlar jamiyatda moddiy ne’mat yetishtirishda, yaratishda va mamlakat boyligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. A.Navoiy dehqon va uning ishlab chiqarishdagi roli to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Don sochuvchi dehqon yerni yorish bilan rizq yo‘lini ochuvchidir”. Dehqon, ya’ni ishchi kuchi mahsulot ishlab chiqarish vositalari bilan qo‘shilishi lozim va shartdir. Navoiy ishlab chiqarish vositalarining moddiy boylik yaratishdagi rolini quyidagicha e’tirof etadi: *“Qo‘shi ham ikki zo‘r polvon bo‘lib, yukiga bo‘ysunib oldida yuradi, ishlashda hamdam va hamqadam, dehqon ularni surishda xuddi odam. Dunyo obodi xuddi ulardan. Har ne qilsalar harakat, xalqqa ham yetar ovqat ham barakat!”*. A.Navoiyning fikriga ko‘ra, yakka kishi hech narsa ishlab chiqara olmaydi.

Biron narsa ishlab chiqarish uchun boshqa-boshqa toifadagi odamlar doim bir-birlari bilan bevosita aloqada bo‘lishlari kerak. Masalan, dehqonga mehnat qurollari zarur bo‘lsa, hunarmandga non kerak, dehqonga ham, chorvadorga ham hunarmandchilik va attorlik mahsulotlari suv bilan havodek zarur. Shunday qilib, baliq suvsiz yashay olmaganidek, barcha turdagi ishlab chiqaruvchi kuchlar ham bir-birisiz rivojlana olmaydi, deydi Navoiy. Dehqonlar va boshqa sohada mashg‘ul kishilar ishlab chiqarish uchun boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan ishlab chiqarish jarayonida, taqsimotda, ayirboshlashda va iste’molda bir-birlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi kerak.

A.Navoiy jamiyatda muhim tabaqa bo‘lgan savdogarlarning o‘zini ham ikki guruhga bo‘ladi. Birinchi guruh – chet el bilan savdo aloqalari olib boruvchi savdogarlar guruhi. Ikkinchi guruh – mamlakat ichkarisidagi olibsotarlar guruhi. Chet ellar bilan savdo-sotiq olib boruvchi savdogarlarga Navoiy ijobiy qaraydi va ularning faoliyatiga xayrihoxlik bildiradi. Bozorlardagi savdogarlarga, ya’ni olib sotarlarga esa tanqidiy ko‘z bilan qaraydi. Ular o‘z manfaatiga xizmat qilib, boshqalar hisobiga boyiydi. Shuning uchun ularning turgan-bitgani mamlakat uchun zarardir, deydi. Savdogarning asosiy maqsadi foyda olishdir. Biri yuz bo‘lishidan

boshida savdo to‘la, bo‘zi shoyi bo‘lishidan ko‘nglida istak ko‘p. Bu yerda savdogar Navoiyning “Hotam Toyiy” asaridagi o‘tin teruvchi cholga qarama-qarshidir. Chol kuni bilan mehnat qilib o‘tin teradi va bu o‘tinni bozorga olib borib, pulga sotadi. O‘tin puliga esa mahsulotlar, ya’ni iste‘mol mahsulotlari sotib oladi. Bu joyda “*tovar - pul – tovar*” jarayoni boradi. O‘tinchi cholning ayirboshlashdan ko‘zlagan maqsadi iste‘mol qiymatidir. Navoiyning fikricha, savdogarning sotib olishdan maqsadi qimmatroq sotishdir. Savdogar birini yuz, yuzini ming qilmoqchi bo‘ladi, deydi. Qo‘ygan oz puli ko‘p bo‘lib qaytib kelishini istaydi, ya’ni uni ayirboshlashdan maqsad qiymatdir yoki “*pul - tovar – pul*” (P-T-P) dir.

Demak, Navoiyning fikrida kapitalning dastlabki formalaridan biri mavjud bo‘lgan. U shahar olibsotarlari haqida quyidagilarni aytadi: “*Shahar olibsotarlari xiyonatchi, o‘ziga foyda va boshqalarga qahat istovchi, uning foydasi xalqqa ziyon, arzon olib qimmat sotish uning orzusi. Olishda shoyini bo‘z deydi, sotishda bo‘zni maqtab shoyi deydi. Molini tovar o‘rnida o‘tkaza olsa, to‘xtatib turish yo‘q. Do‘konida insofdan boshqa barcha mol mavjuddir!*” A.Navoiy o‘zi ishlab chiqarishda va ishlab chiqarish sohasida mashg‘ul bo‘lmasada, o‘z aqliy va ijodiy mehnati bilan jamiyat uchun kerak bo‘lgan tabaqalarni e‘zozlaydi, olimlar, tabiblar, shoirlar, muhandislar va boshqalarni jamiyat uchun zarur qatlamdir, deydi, ana shu kasb egalarini o‘z mas‘uliyat va burchlarini sezishga chaqiradi.

Jumladan, Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan izohli lug‘atlarda adib tomonidan qo‘llangan: *bozurgon, bozorgon, bozorvardliq, bozorvard* (forschada: *savdogar, qaytarib topshirish*) kabi so‘zlar izohini ko‘rish mumkin.³⁰

2.2. Ikki va ko‘p tilli lug‘atlarda savdo-sotiq leksikasi

Millatning millat ekanligini ko‘rsatuvchi eng muhim belgilardan biri uning tilidir. Ma‘rifatparvar jadid Abdulla Avloniyning “*Har bir millatning millat ekanligini ko‘rsatadurg‘on oyinai jahoni uning tili va adabiyotidir. Tilni yo‘qotmak,*

³⁰ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик / Ўзбекистон ФА Тил ва адабиёт институти / Тошкент., «Фан». 1983-1985.

millatni yo'qotmak demakdir. Til yashasa, millat yashar” degan fikri har qanday zamonda ham dolzarbdir.

Mamlakatimizda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi mavqeini yuksaltirish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, jamiyatda davlat tilini to'laqonli joriy etilishini ta'minlash, shu bilan birga, turli millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, ularga o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi ham faoliyat yo'naishidan kelib chiqib, davlat tilini yanada rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirib kelmoqda.

Ma'lumki, turkiy xalqlar qadimdan turli sohalarda hamkorlik qilib kelishgan, shu jumladan, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda taraqqiy etish mazkur hamkorlikning mahsuli sifatida qarash mumkin.

Er. avv. II asrda faoliyat ko'rsata boshlagan Buyuk Ipak yo'li dasht va cho'llar, shuningdek, O'rta Osiyoning asosan turkiyzabon qabilalari va xalqlari yashagan tog'lar va tog' vodiylari orqali o'tgan. Shuning uchun turklar gidlar va savdo karvonlari uchun transport vositalarini etkazib beruvchilar kabi xalqaro savdoda faol ishtirok etganlar. Bundan tashqari, ular savdo yo'llarining ustalari edilar, ularning himoyasi va xavfsizligini ta'minladilar. Qadimgi turklarning xalqaro savdoda tutgan o'rni tufayli savdoga oid atamalar turkiy tillardan kirib kelgan³¹.

Bu atamalardan biri inglizcha silk – “silk” so'zidir. Lingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, *silk* so'zi inglizcha emas, to'g'ridan-to'g'ri xitoycha si / sei - "ipak" so'zidan olingan va orqali oltoy tillari orqali, ya'ni qadimgi mo'g'ul yoki eski tungus tillarida bu so'z *sirke* shaklida ishlatilgan³². Ipak ishlab chiqarish bronza davrida Xitoy imperatori Xuan Di (miloddan avvalgi 2640 yil) hukmronligidan boshlangan va shu davrda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan.

³¹ Камолиддин Шамсиддин Сирожиддин оглы Торговля у древних тюрков. “Иктисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 4, июль-август, 2018.

³² Penglin Wang. On the ethymology of English silk: a case study of IE and Altaic contact // CAJ, vol. 37, 1993, p. 225 – 248.

So‘g‘d va turkiy tillar xitoyliklar orasida allaqachon VII asrda keng tarqalgan edi. Xitoyda turkiy-xitoycha “Tou-kiue-iuy” (“Turkiy nutq”) lug‘ati mavjud bo‘lib, Xitoyda so‘g‘d tilidagi lug‘atlarning mavjudligi haqida hech qanday eslatma yo‘qligi so‘g‘dlar o‘rtasidagi turkiy tilning millatlararo muloqot tili ekanligini ko‘rsatadi.

Turkiy-xitoycha “Tou-kiue-iuy” (“Turkiy nutq”) lug‘atiga ko‘ra, bu davrda mintaqada turkiy qavmlarning mavqeyi baland bo‘lgan va shunga ko‘ra, turkiycha savdo-sotiqqa oid so‘zlar o‘zga til lug‘at tarkibiga ko‘chib o‘tgan. Masalan: *bozor* – bozor, maydondagi savdo, *baxshish* – pora, ehson, choy puli (forscha. bahšiš), *balag‘an* – tovar uchun ombor (forscha. bālāhānā – bolohona), karvon, kiosk – kichik savdogarlar uchun bino, do‘kon *matraboz* – olib-sotar, pulo, *pul* (pul – Olta O‘rda pul birligi, yun. folla, follis – pul), *kipa* (ipak yoki paxta toyi) kabilar (1-jadval).

| | Atama va fe‘llar ³³ | |
|-----|---|---------------------------------|
| 1. | arquĉi | O‘rtakash |
| 2. | asīyliy | Foyda egasi |
| 3. | Bajayut, baj, baqyuluq, barlīy er, emrānĉ, jilsiy | boy |
| 4. | bistä | Savdo inshootining egasi |
| 5. | sart | savdogar |
| 6. | sartavayĉi | Savdogarlar sardori |
| 7. | sartla | savdogar deb hisoblamoq |
| 8. | satiysaq | Sotishni istamoq |
| 9. | tutyuĉi | Xaridor |
| 10. | satiyĉi | Sotuvchi |
| 11. | timĉi | May sotuvchi |
| 12. | alim | Qarz |
| 13. | alim berim | Qarzdorlik bo‘yicha hisob-kitob |
| 14. | ališ beriš | Oldi-sotdi |
| 15. | asīy | foyda |
| 16. | kiriš | kirim |
| 17. | ötkürü sat | Olib-sotish |

³³ Камолиддин Шамсиддин Сирождиддин оглы jami 160 ta savdo-sotiqqa oid qadimgi turkiy tilga tegishli atamani tilga olgan, biz bulardan ayrimlariga misol keltirdik: Камолиддин Шамсиддин Сирождиддин оглы Торговля у древних тюрков. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2018.

| | | |
|-----|-----|-------|
| 18. | qor | zarar |
|-----|-----|-------|

Bundan ham qimmatli manba qadimgi turkiy savdo sohasi terminologiyasining o‘zi bo‘lib, qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarida qayd etilgan va o‘rta asr turkiy-arab lug‘atlarida berilgan³⁴.

O‘zbek va rus tilining tarixiy lesikologiyasi ham keng, ham katta ehtiyojga egadir. Lug‘atni intensiv o‘rganishda so‘z boyligi rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rgatishga da’vo qiladigan materialni keng qamrab olgan tadqiqotlar uning o‘ziga xos tematik guruhlarini, shu jumladan o‘zbek va rus tilining savdo-iqtisodiy lug‘atini o‘rganishga tayanishi XI asrda mumkin emas edi. Yangi tovar aylanmasining o‘sishi, mahalliy bozorlarning mintaqalar o‘rtasidagi almashinuvni doimiy ravishda oshirish yagona umumrossiya va o‘zbek bozorida to‘planishi bilan tavsiflangan. Rivojlanish asosida qishloq xo‘jaligi va shahar hunarmandchiligida ishlab chiqaruvchi kuchlar o‘sha davrda bozor munosabatlari sohasida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Bozorga kiradigan tovarlar massasi oshdi. Asosan tabiiy-geografik mehnat taqsimotiga asoslangan ichki savdo kuchli jonlandi. Bozor operatsiyalari natijasida shakllangan pul kapitalining katta qismi xazinaga aylanib, boyarlar va ruhoniylarning “yog‘on” xazinasida bo‘lgan. Ko‘p hollarda ular bu xazinalar hashamatli narsalar va sudxo‘rlik sotib olish uchun ishlatilgan. Sinxronik nuqtai nazardan, biz quyidagilarni ta’kidlaymiz:

1. Sotib olish va sotish bilan bog‘liq jarayonlar va harakatlarni bildiruvchi atamalar zamonaviy o‘zbek tilida to‘liq saqlanib qolgan.

Savdo ayirboshlash, almashish, sotib olish sotish. To‘lov atamasi u belgilangan hodisasi bilan birga yo‘qolgan.

2. Terminologik ma’nodagi obyektlari nomlari orasida tavar so‘zi saqlanib qolgan Ot arzi mas so‘zi “junk” ma’nosida qo‘llanila boshlandi. Kompozit mahsulot nomlari saqlanib qolmagan.

³⁴ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991.

3. Ish hujjatlarini bildiruvchi qo‘shma nomlar ham ishlatilmaydi. Harf, kitob, ko‘chirma otlar savdo-iqtisodiy terminologiyadan tashqarida.

4. “Bozorda bir qatorida joylashgan bir jinsli tovarlarni sotish uchun *peshtaxta*” ma’nosida hozir qator so‘zi qo‘llaniladi. “*Kichik do‘kon*” sememasida do‘kon nomi saqlanib qolgan, asl manosida bozor atamasi ishlatilgan. Savdo joylarining kompozitsion nomlari saqlanib qolmagan.

5. Savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni bildiruvchi qo‘shma nomlar yo‘qolgan. Bir qancha bir so‘zdan iborat atamalar savdogar, soliq dexqon savdogar ham foydalanishdan chiqib ketgan XVII asr yozuvida keltirilgan alohida *savdogar sotuvchi qassob* kabi atamalar zamonaviy o‘zbek tilining bir qismiga aylandi.

XIX asming 70-yillaridan e’tiboran o‘zbek terminologiyasi rus tili orqali G‘arbiy Yevropa tillaridan o‘zlashgan terminlar asosida rivojlan- ish bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu davrda rus tilining o‘zbek tili leksikasi, xususan, terminologiyasi rivojiga ta’siri masalasi hozirgacha har tomonlama chuqur ilmiy tadqiqot obyektiga aylanmagan. Vaholanki, manbalarda qayd qilingan faktik materiallar o‘zbek terminologiyasining zikr etilgan paytdagi taraqqiyotini bevosita ifodalagani bois muammoni ijobiy hal etishda o‘ta qo‘l kelishi aniq.

Shu kabi ma’lumotlarni 19-asr oxirida yaratilgan ikki tilli lug‘atlar sirasidagi S.Lapinning rus-o‘zbek cho‘ntak lug‘atida ham kuzatish mumkin (5-rasm)³⁵

5-rasm

Названія монетъ:

| | |
|--------------------------------|--------------------|
| Рубль—сум, беш-танга | 5 к.—бир-мири |
| 50 к.—ярим-сум, еки ярим-танга | 4 к.—еки-накыр |
| 20 к.—бир-танга | 3 к.—токуз-пуль |
| 15 к.—уч-мири | 2 к.—бир-накыр |
| 10 к.—ярим-танга | 1 к.—тиин, уч-пуль |

³⁵ Карманный русско-узбекский словарь : 4000 слов для обыден. разговора с оседлыми туземцами Туркестан. края, с прил. крат. грамматики узб. яз. / Сост. д. чл. Стат. ком. С.А. Лапин. - [4-е изд.]. - Самарканд: Самарканд. обл. стат. ком., 1914 (обл. 1915). - V, [2], 114, 63 с.

В ʘ с а:

| | | |
|---|------------|---|
| 8 п. (въ Самарк.) 11 п. (въ Ташк.) Пудъ—пудъ Фунтъ—кадак | } — батман | 10 ф. (въ Сам.)—катта-чай-ряк 5 ф. (" ")—кичик-чай-ряк Золотникъ—мискал |
|---|------------|---|

Lugʻatshunos mazkur kitobida oʻzbek tilidagi savdoga oid soʻzlarni: *базаръ*, *карыза* (), *закалатка коймак*, *гаравга коймак* ifodalarini keltiradi³⁶.

Sobiq shoʻro davri hamda Mustaqillik yillarida oʻzbek tiliga xorijiy atamalarning kirib kelishi sabab oʻzbek tilidagi savdo-sotiqqa oid atamalar miqdori mazmunan va shaklan yangi birliklar hisobiga ortdi. Hozirgi kunda “Iqtisodiy atamalarning oʻzbekcha-ruscha-inglizcha” lugʻatida³⁷ berilgan ayrim birliklar shunday xulosa qilishga imkon beradi. Ushbu lugʻatda savdo-sotiqqa oid jami 35 ta atama ajratib olindi va ularning ayrimlari quyidagi jadvalda berildi (2-jadval).

2-jadval

| Oʻzbekcha | Ruscha | Inglizcha |
|------------------|--------------------|-----------|
| Narx | Цена | Price |
| Ulgurji | Оптом | Wholesale |
| Ayirboshlash | Обмен | Exchange |
| Chegirma | Скидка | Discount |
| Qoʻshimcha yutuq | Бонус | Bonus |
| Yetkazib berish | Доставка | delivery |
| Brend | Бренд | Brend |
| Muddatli toʻlov | Кредит | Credit |
| Koʻtara | Поднимать | Lift up |
| Savdo | Торговля | Trade |
| Rasta | Раста | Rasta |
| Mahsulot | Продукт | Product |
| Foyda | Выгода | Benefit |
| Chakana | Розничная торговля | Retail |
| Oʻlcham | Размер | Size |
| Arzon | Дешевый | Cheap |

³⁶ Карманный русско-узбекский словарь : 4000 слов для обыден. разговора с оседлыми туземцами Туркестан. края, с прил. крат. грамматики узб. яз. / Сост. д. чл. Стат. ком. С.А. Лапин. - [4-е изд.]. - Самарканд: Самарканд. обл. стат. ком., 1914 (обл. 1915). - V, [2], 114, 63 с.

³⁷ Иқтисодий атамаларнинг ўзбекча-русча-инглизча луғати. – Тошкент: Шарк, 2001.

Bobga doir xulosalar

Muqaddas kitob – Qur’oni Karimda kishilik jamiyatining faoliyat turlaridan biri iqtisodiyot sohasidagi munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Chunki, iqtisodiy munosabatlarda insonlarning asosiy fe‘l-atvorlari namoyon bo‘ladi. Qur’oni Karim ahkomlari insonlarga ilohiy farmoyish sifatida zamindagi barcha insonlarning bir ota-ona Odam alayhissalom va Momo Havo farzandlari, binobarin aka-uka, opa-singal ekanligiga asoslanadi.

Alisher Navoiy jamiyatda muhim tabaqa bo‘lgan savdogarlarning o‘zini ham ikki guruhga bo‘ladi. Birinchi guruh-chet el bilan savdo aloqalari olib boruvchi savdogarlar guruhi. Ikkinchi guruh-mamlakat ichkarisidagi olibsotarlar guruhi. Chet ellar bilan savdo-sotiq olib boruvchi savdogarlarga Navoiy ijobiy qaraydi va ularning faoliyatiga xayrixohlik bildiradi. Bozorlardagi savdogarlarga, ya’ni olibsotarlarga esa tanqidiy ko‘z bilan qaraydi.

III BOB. SHO‘RO DAVRI VA MUSTAQILLIK O‘ZBEK LUG‘ATLARIDA SAVDO-SOTIQ LEKSIKASINING TALQINI

3.1. Sho‘ro davri leksikografiyasida savdo-sotiq leksikasi talqini

Hozirgi turkologiyada o‘tmishdan qolgan yozma yodgorliklarni chop ettirish bilan bir qatorda, ularda qo‘llangan so‘zlarni yig‘ish, yodgorliklar bo‘yicha lug‘atlar tuzishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu ishga XIX asrdanoq kirishilgan edi. Hozirga kelib bu soha turkshunoslikda katta yutuqqa erishdi.

Muhim jihati, kunimizda yaratilayotgan lug‘atlar tuzilish prinsipiga ko‘ra eski lug‘atlar an‘anasidan farq qiladi. Bular, asosan, hozirgi yevropa lug‘atchiligi ishlab chiqqan yo‘riqqa tayanadi.

Yana bir belgisi, ushbu lug‘atlar izohli bo‘lib, yozma yodgorliklardan olingan misollar transkripsiyada beriladi. *Transkripsiya* – yodgorlik tilini, asarning fonetik xususiyatlarini saqlagan holda hozirgi yozuvga o‘girish degani. Hozirgi turkologiyada keng yoyilgan hamda mutaxassislarga ma‘qul tushayotgan transkripsiya ikki turli – kirill hamda lotin alifbolariga tayanadi. To‘g‘risi, so‘nggi yillarda kirilldan ko‘ra lotinni qo‘llash keng tus olyapti. Shuning uchun ham shu choqqacha yaratilgan lug‘atlarda ikki xilidan ham foydalanilgan: yo unisi, yo bunisi. Ba‘zi o‘rinda kirillga asoslangan transkripsiyada ham, tovushga teng keluvchi belgi yo‘qligidan, lotincha belgilarni qo‘llaganlar.

O‘zbek xalqi tarixida birinchi marta 1981-yilda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”³⁸ tuzilib, nashr etildi. XIX-XX asrda o‘zbek lug‘atchiligi rivojiga S.Rahmatiy, A.Qodiriy³⁹, Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov⁴⁰, A.Ma‘rufov⁴¹lar munosib hissa qo‘shganlar.

Sobiq sho‘rolar hukmronligi vaqtida o‘zbek tili terminologiyasi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi haddan tashqari ko‘p miqdordagi o‘zlashma terminlar hisobiga kengaydi. Soha terminologiyasi tizimining vujudga kelishida

³⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2 жилдли. – Тошкент: ЎзМЭ, 1981, -Б.630

³⁹ С.Раҳматий, А.Қодирий. Русча-ўзбекча тўла сўзлик луғати, 2 жилдли. – Қозон, 1934. –Б.250

⁴⁰ Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент - Ўқитувчи, 1978. –Б.190

⁴¹ Маъруфов А.Паронимлар луғати-Тошкент: Ўқитувчи, 1974.

sof o‘zbekcha leksik birliklar bilan birga ruscha-baynalmilal terminlarning roli yuqori bo‘ldi.

XIX asr oxiri XX boshlaridagi ijtimoiy-lisoniy sharoit tufayli o‘zbek tiliga o‘zlashgan va o‘zlashayotgan ijtimoiy-siyosiy terminlarni tarjima qilishga ehtiyoj ortgan edi. Shunga binoan ijtimoiy-siyosiy terminlarning maxsus ikki tilli tarjima lug‘atini yaratish yo‘lidagi leksikografik ishlar amalga oshirila boshlangan va N.To‘raqulovning “Rus-o‘zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug‘atchasi” bu yo‘nalishdagi dastlabki ish ekanligi bilan xarakterli. Lug‘atning ijtimoiy-siyosiy terminologik tizim, umuman, o‘zbek lug‘atshunosligida o‘ziga xos o‘rni bor. Lug‘at asosida mazkur davrda qanday terminlarning qo‘llanilganligi, ularning ma’nolari, ma’no o‘zgarishi, yangilanish hamda eskirish jarayonlari haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Lug‘at soha terminlari to‘plangan ilk lug‘at bo‘lganligi uchun kamchilikdan holi emas. Biroq soha terminlarini tartibga solishda, shuningdek, nafaqat shu sohaning, balki boshqa soha terminologik lug‘atlarini yaratishda namuna sifatida o‘zbek leksikografiyasi tarixida muhim ahamiyatga ega.

Biroq shunga qaramay, tijorat, savdo-sotiq, iqtisodiy islohotlarga intilish totalitar tuzumda u qadar oqlanmaganligini S.Muhamedovning chastotali lug‘ati ham isbotlaydi.

Lug‘atda, umumiy holda jami 58 ta savdo va iqtisodiy tushunchalar sharhi uchraydi. Jumladan, so‘zliklar (so‘zshakllari bilan) kirill alifbosida berilgan bo‘lib, ularning gazeta matnlaridagi faolligi quyidagicha: **актив** (от) 24; **актив алмаштирмақ** - 2 (сиф.) 66; **алмаштирил-актив** - 57; **товар** - 43; **савдо** (от) - 129; **савдо-иқтисодий** - 19; **савдо-саноат** - 14; **савдодаги** - 1; **савдо-сиёсий** - 1; **савдо-сотик** - 48; **савдо-сотикдаги** - 2; **сотмоқ** - 14; **сотаётганлик** - 1; **сотиб олмоқ** - 1; **сотилмоқ** - 7; **сотиш** (феъл) - 10; **сотувчи** (от) - 1; **спекуляция** - 1; **чайқовчилик** - 1(от)⁴² kabi.

⁴² Муҳамедов С. Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати. (Газета текстлари асосида). – Тошкент, Фан, 1982.

3.2. Mustaqillik davri o‘zbek lug‘atlarida savdo-sotiq leksikasining berilishi

Mustaqillik davrida lug‘atshunoslik bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Ko‘plab lingvistik va ensiklopedik lug‘atlar yaratildi va nashr etildi. Birgina O‘zbek tilining izohli lug‘ati (O‘TIL) mustaqillik davrida 2 marta qayta nashr etildi (2005-2020).

Bir qator tadqiqotchi olimlar (Qosimova M., Djabbarova Sh., Ziyayeva M.) barcha tur ilmiy adabiyotlardagi kabi iqtisodga taalluqli bilimlar ilmiylikka asoslangan va fakt-dalillarga tayangan holda berilishini ta’kidlaydilar. Shunday ekan, iqtisodga oid asarlarda har bir tushuncha, asarning turi, maqsad, vazifasiga ko‘ra beriladi⁴³. Yangi terminlarning qo‘llanilishi, ma’nosi to‘g‘risida tuzilgan iqtisodiy lug‘atlar esa iqtisodga oid terminlarning mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Iqtisod ko‘p tarmoqli soha hisoblanadi. Yaratilajak iqtisodiy atamalar lug‘atlari ham aynan uning tarmoqlarini o‘z ichiga qamrab olgan holda ilmiy, ilmiy-ommabop, o‘quv adabiyotlari sifatida yaratilishi lozim⁴⁴. Soha keng tarmog‘iga ko‘ra bu tur atamalar lug‘atini quyidagilarga bo‘lish mumkin:

1. Makro va mikroiqtisodiyot;
2. Moliya kredit;
3. Sanoat iqtisodiyoti;
4. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti;
5. Ekonometrika va statistika;
6. Buxgalteriya hisobi va audit;
7. Menejment;
8. Marketing;

⁴³ Qosimova M., Djabbarova Sh., Ziyayeva M. Ўзбек тилида иқтисодга оид атамаларнинг изоҳли луғатини шакллантиришнинг мақсад ва вазифалари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil 5/2020 (№ 00049) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

⁴⁴ Qosimova M., Djabbarova Sh., Ziyayeva M. Ўзбек тилида иқтисодга оид атамаларнинг изоҳли луғатини шакллантиришнинг мақсад ва вазифалари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil 5/2020 (№ 00049) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

9. Jahon iqtisodiyoti;
10. Mintaqaviy iqtisodiyot;
11. Demografiya va mehnat iqtisodiyoti⁴⁵.

Bu tarmoqlarni inobatga olgan holda atamalar izohli lug‘atini shakllantirish albatta oson kechmaydi. Bu tarmoqlarga oid atamalar boshqa fan tarmoqlarida ham uchrashi mumkin. Masalan, geografiya, iqtisodiy geografiya, mamlakatlari geografiyasi, matematika va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Iqtisodiy atamalar lug‘atini shakllantirishda fikrlar tarqoq bo‘lmaydi. Atamalar ma’nosini ochib berishda ketma-ketlikka tayaniladi. Mantiqiy bog‘liqlikka e’tibor qaratish darkor. Shunda ular soha mutaxassislari uchungina emas, balki iqtisodiyotdan boshqa soha vakillari uchun ham tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun ham bu fanga oid atamalarni ham ilmiy, ham taxririyl jihatdan puxtaligi iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari atamalarning omma nutqida ko‘proq qo‘llanadigan muqobili muallif tomonidan e’tiborga olinib, ham ilmiy, ham ilmiy-ommabop tarzda berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ya’ni, ularning izohi, mohiyatidan kelib chiqqan holda kengroq, omma uchun tushunarli holatda bayon etilishi ahamiyatliroqdir. Ilmiy, ilmiy-ommabop tarzda tayyorlangan atamalarning izohli lug‘atini tayyorlashda uning iqtisodiyotning muayyan sohasiga oid bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha soha vakillari uchun tushunarli bo‘lishi, ommaga mo‘ljallanishi maqsadliroq. Lekin, yangi axborot bo‘lmasa u amalda muvaffaqiyat qozona olmaydi, ammo ma'lum bo‘lgan ma'lumotlarning kamligi ham aniq faktik axborotlarni qabul qilishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil: boshqa tillardan so‘z olish; yangi so‘z yasash, ayrim grammatik kategoriyalarning leksikolashuvi, so‘z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqalar⁴⁶. Iqtisodga oid terminlarning asosiy kismi bozor iqtisodiyotiga oid chet so‘zlardir. Masalan, marketing, menejment, kredit,

⁴⁵ Қосимова М., Джаббаровва Ш., Зияева М. Ўзбек тилида иқтисодга оид атамаларнинг изохли луғатини шакллантиришнинг мақсад ва вазифалари. “Иқтисодийот ва innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020. “Иқтисодийот ва innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil 5/2020 (№ 00049) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

⁴⁶ Бичик С.В. Словарь экономических терминов Справочник / С.В. Бичик. – Минск: Вышэйшая школа, 2009

biznes, buxgalteriya, lizing, investitsiya, aksiya, audit, menejment, biznes, marketing, reyting, investitsiya, veksels, kredit, rendit, regress, poritet va boshqalar. Umuman, termin bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi soʻz va soʻz birikmasi. Umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali oʻtadi, binobarin, terminlar va umumisteʼmoldagi soʻzlar bir-birini toʻldiradigan leksik birliklardir⁴⁷.

Aynan iqtisodiy terminlarda ham uslubiy betaraflik, aniqlik va sohaga tegishlilik mavjud. Zero, iqtisodiy terminlar iqtisodiy leksikaning asosiy qismlaridan biri boʻlib, iqtisodchi mutaxassislar tomonidan yaratiladi. Ularning qoʻllanilishi maxsus terminologik lugʻat tuzish jarayonida nazorat qilib boriladi. Ularning aniqligi va qatʼiylashishi sohani qay darajada egallaganligini koʻrsatib turadi. Iqtisodchi mutaxassislarning har bir iqtisodga oid tushunchani ifoda etuvchi terminlarni, ushbu soxadani boxabar kishilar uchun tushunarli boʻlishini taʼminlashi lozim.

Bugungi kunda iqtisodiyotga oid ishlatiladigan terminlar xorijiy tildan kirib kelayotgan terminlar sifatida qoʻllaniladi. Ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda ham asosan xorijiy tildan kirib kelayotgan terminlarni uchratish mumkin. Ularning tarjima qilmasdan toʻgʻridan toʻgʻri foydalanish tilimizda urfga aylanib bormoqda. Asosan ingliz tilidagi atamalarni insonlarni ongini jalb qilish maqsadida reklama tarzida foydalanish keng tus olmoqda. Bu ingliz tilidan kirib kelgan atamalarning tarjimasi yoʻq degani emas. Yaʼni, kundalik turmushimizda bizda “market” emas, balki “bozor” soʻzi qoʻllaniladi. Bu barcha uchun tushunarli. Maʼlumki, oʻzlashgan terminlar oʻzbek tilida sezilarli miqdorni tashkil qiladi. Ularni qisqa vaqt ichida oʻz qatlamga oid soʻzlar bilan almashtirish ayrim qiyinchiliklarni tugʻdiradi. Albatta, bunda oʻzlashgan terminlarni umuman oʻzgartirish kerak emas demoqchi emasmiz. Ammo terminlar mohiyati toʻla talabga javob bersa almashtirilgani maʼqul. Masalan: *firma – korxonani, tadbirkorlik – biznes, bozor – market, banknotlar - bank biletleri, bronza veksels - soxta veksels* va h.k. Xorijiy tildan kirib kelayotgan terminlarni iqtisodiy atamalarning izohli lugʻatida qoʻllash jarayonida albatta

⁴⁷ Иқтисодиётга оид атамалар ва тушунчалар изоҳли луғати. Тошкент “Фан” 2004 йил.

ularning mohiyatiga chuqurroq yondashish talab etiladi. Shuningdek, o'z qatlamdagi muqobili bilan bir qatorda berilsa, foydalanuvchi ma'lumotni mukammal o'zlashtira olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan: munitsipal (mahalliy) bozor. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, xorijiy tilga oid terminlar izohli lug'atda qo'llanilar ekan, ma'nosi izohlanadi, zarur o'rinlarda muqobili qavs ichida berilishi shart.

Quyida biz O'TIL ning 2020-yilda nashr etilgan 5 tomlik kitobida keltirilgan savdo sotiqqa oid so'zlarni berib o'tamiz va tahlil qilamiz:

Mustaqillik davrida lug'atshunoslik bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Ko'plab lingvistik va ensiklopedik lug'atlar yaratildi va nashr etildi.

Birgina O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL) mustaqillik davrida 2 marta qayta nashr etildi (2005-2020). Quyida biz O'TIL ning 2020-yilda nashr etilgan 5 tomlik kitobida keltirilgan savdo sotiqqa oid so'zlarni berib o'tamiz va tahlil qilamiz:

KO'TARA- Butun boricha yoki katta, ko'p miqdorda amalga oshiriladigan; ulgurji (oldi-sotdi, savdo haqida). Ko'tara savdo. Ko'tara (tarzda) olmoq⁴⁸. Ko'tara sotmoq. *Shu vaqtlarda Muhammadrajab u bilan ko'tara mol oladigan xaridoriga qilganday muomilada bo'lar edi.* (A.Qahhor Sarob) Ko'tara savdo qilmoq- 1) ulgurjisiga sotmoq yoki olmoq; 2) ko'chma ayb bo'lsa-da, bor gapni ochiq-oydin, lo'nda qilib aytib qo'ya qolmoq. –*Noma'qul buzoqning go'shtini yebsan! Bidingmi-dedi Ochildov ko'tara savdo qilib.* (A.Mirahmedov O't yuraklar)

KO'TARAFURUSH- Ko'tara savdo qiluvchi, ko'tarasiga sotuvchi yoki sotib oluvchi⁴⁹. *Ko'tarafurushlarga aslo sotmang, deb qayta-qayta tayinladi.* (N.Norqobilov Bekatdagi oq uycha)

KO'TARASIGA-rvsh. Butun boricha, yaxliticha; ulgurji⁵⁰. *Dehqon yoki bog'bon bozorga olib kelgan molini ko'tarasiga naridan-beri sotadi-yu, kam-ko'stini xarid qilib, tirikchiligiga shoshiladi.* (K.Yashin Hamza)

⁴⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.300

⁴⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.

⁵⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

ULGURJI- 1 Butun boricha; ko‘p miqdorda; ko‘tara⁵¹. Ulgurji savdo. Ulgurji olmoq. Ulgurji sotmoq. Donalab sotdim. *Bu yerda ulgurji oladigan kishi yo‘q.* (I. Rahim, Chin muhabba.) *Sotiboldi to‘qilgan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko‘tardi.* (A.Qahhor Bemor) Ulgurji bozor Tovar iste‘molchilariga yoki ularni chakana sotadigan xaridorlarga tovarlar yirik to‘p (partiya) lari bilan ko‘tarasiga sotiladigan bozor. 2. Katta miqdorda, katta summaga ega; salmoqdor. Ulgurji hosil. *Magazinga ulgurji mol keldi. Pulini foydaga qo‘yuvchi sudxo‘r hindlardan ulgurji savdoni ko‘tardilar.*

(Sh.Toshmatov, Erk qushi.) *Ulgurji narx haqidagi xushxabarni ma‘lum mijozlarga yetkazish keying yillarda Poshsha xolaning vazifasi bo‘lib qolgandi.* (D.Nuriy, Osmon ustuni) 3. Boshdan oyoq, butunlay. Ulgurji ta‘mirdan chiqarmoq.

LIZING- {ingl. Lease, leasing-ijara; ijara shartnomasi; ijaraga bermoq} Asosiy ishlab chiqarish vositalari (*mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlari*) va boshqa tovarlarni ishlab chiqarishda foydalanish uchun qarzni asta-sekin uzish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berish yoki olish⁵². Lizing kompaniyasi. Lizing shartnomasi.

BARTER- {ingl. Barter-tovar ayirboshlash} iqt. Pul mablag‘lari ishtirokisiz bevosita tovarga tovar ayirboshlash va shu haqdagi shartnoma⁵³. Barter bitimi. Barter usuli.

RASTA-qator; qatorga qo‘yilgan, qatorda turgan.Bozorlarda bir turdagi mol bilan savdo qiladigan do‘konlar qatori va ular o‘rtasidagi bozor, ko‘cha, yo‘lak.Chit rastasi.*Chamasi, kasalxona yaqinidagi bu bozorcha o‘zidan-o‘zi paydo bo‘lgan, keyinchalik bir qator rasta qurilib, ustiga rangdor plastmassa shifer yopib qo‘yilgan edi.* (O‘.Hoshimov Nur borki, soya bor) *Keltirilgan qop-qora guruchlarni tushirish kerak, rastalarga joylash kerak.* (Sh.Xolmirzayev Og‘ir tosh ko‘chsa) *Bashirjon rasta oralab yurarkan, yon tomondan tanish bir ovoz keldi:Ho, jiyan!* (N.Amonov Suvarak)

⁵¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.354

⁵² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.255

⁵³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.355

AYIRBOSHLASH-Kishilarning mehnat faoliyati yoki mahsulotlarini o‘zaro almashtirishlari⁵⁴.

NARX - (baho, qiymat) Narsaning, buyumning pul bilan o‘lchanadigan qiymati; baho⁵⁵. Ibodulla katta-kichik taroqlarning narxlarini birma-bir aytdi. (H.G‘ulom Mashal) Mahmud bolaga: yigirma dona non kerak ekan. Narxi qanchadan deb darrov so‘rab kel! (A.Qodiriy Mehrobdan chayon) Narx qo‘ymoq (yoki qo‘ymoq) - Narxini belgilamoq, baho qo‘ymoq, baholamoq. Bu molga besh so‘m narx qo‘yildi “Xolislar” har bir botmon jo‘xorini o‘n tanga narx qildilar. (S.Ayniy Esdaliklar)

ARZON-bahosi past, qadri kam⁵⁶. 1).Bahosi, narxi yuqori bo‘lmagan. *Arzon mol shu qarang, hammasi arzon narsalar.* (S.Zunnunova Olov) *Me‘yordagidan past narx, past narxda. Bizning Qalandarboy kuzda kambag‘allarning paxtasini arzonroq sotib olib, saroyiga bosib qo‘yadi.* (M.Ismoilij Farg‘onada tong otguncha)

ARZONGARON - arzon⁵⁷. (qimmat, bahosi baland) arzongarov

ARZONGAROV- ravish so‘z turkumi bo‘lib, asl qiymatidan ancha kamiga, arzimagan pulga, past baho bilan tekunday⁵⁸. Arzongarov sotib olmoq.

ARZONSINMOQ-Asl bahosidan, narxidan arzon so‘rashyapti, deb bilmoq; oluvchi aytgan bahoni, narxni kam deb hisoblamoq.

ARZONLASHMOQ-Arzon bo‘lmoq, bahosi, narxi pasaymoq.*Mollar ancha arzonlashdi.Mexanizatsiya tufayli har bir sentner paxta ikki so‘m arzonlashdi.*

ARZONCHILIK- Narxnavoning arzon holati,payti;bu so‘zning zidi qimmatchilik⁵⁹.

QIMMAT-arabcha (boylik,qimmatbaho narsa, baho)⁶⁰ 1).Nisbatan yoki me‘yor, mo‘ljaldagidan katta pul turadigan, narxi baland. Qimmat mol. Qimmat buyum. *Qimmat bo‘lsa ham, noiloj olar edim-a, lekin puldan umuman ortmadi.* (Oybek. Tanlangan asarlar) *Shunaqa qimmatidan olmasdan, gazmol olib kelsangiz-*

⁵⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.115

⁵⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

⁵⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.115

⁵⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.116

⁵⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.116

⁵⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.116

⁶⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.311

ku, bir xil qilib tikib berardim. (R. Fayziy, Sen yetim emassan) Etigingiz qimmat, usta. Biz talabalarning qudratimiz yetmaydi. (Mirmuhsin, Me'mor) Bir pulga (yoki paqirga) qimmat Hech narsaga arzimaydi. Bir pulga qimmat mato. Bir paqirga qimmat, o'tkinchi ikir-chikirlar uchun jon kuydiradi-yu, eng bebaho xazinasidan – salomatligidan judo bo'layotganini o'ylab o'tirmaydi. (O'.Hoshimov, Nur borki, soya bor) Qimmat bermoq - kam qo'll. Baho bermoq; baholamoq. Darhaqiqat, o'zaro bitmas nizolarning asli ma'nosini u yaxshi anglab tahlil qilar va durust qimmat berar edi. (A.Qodiriy, O'tkan kunlar) Qimmatga tushdi - 1) mo'ljallanganidan yuqori narxga olindi. Antibiotiklar mikroorganizmlardan hosil qilinishi sababli qimmatga tushadi. «Fan va turmush»; 2) ko'chma katta sarf-xarajat, mehnat va h.k. evaziga amalga oshdi, qo'lga kirdi; zarar keltirdi. Bu jang bizga qimmatga tushdi, ancha o't ochish nuqtalarimiz qurollar va soldat-larimiz bilan birga yakson etildi. (T.Rustamov, Mangu jasorat) Mas'ul lavozimdagi xodim yetti o'lchab, bir kesmasa, uning xatosi qimmatga tushishi turgan gap. Gazetadan. 2 - ayn. qimmatbaho - 1. Olgan sovg'am oltin uzuk, qimmat tosh emas. (G'ayratiy) -Senga ham darkor, – deb durru javohir, qimmat toshlardan berdi. 3 ko'chma Pulga, hyech narsaga sotib olib bo'lmaydigan; bahosi yo'q, bebaho, qadrli, aziz. Bilim davlatdan qimmat. (Maqol) Gar dilingda o'ylagan orzuga yetmoq istasang, Qimmat umring qilmagil behudaga bekor, o'qi! (Hamza) Unsin, hammasi ortiqcha narsa. Bularning hammasidan menga bir eski do'ppi qimmat. (Oybek, Tanlangan asarlar) 4 ko'chma Mavqe, ahamiyat darajasi. Kamida bir yilga so'z berib qo'ydim. So'z oltindan qimmat-ku, axir! (H. Nazir, Yonar daryo) 5 Qimmat (xotin-qizlar ismi).

QIMMATBAHO - [a. + f. – bahosi, narxi yuqori, qimmat] 1 Katta pul turadigan, qimmat bahoga ega, qimmatli⁶¹. Qimmatbaho sovg'a. Qimmatbaho buyum. Qimmatbaho toshlar. *Hokim supada yonboshlab yotgan yerida to'rt barmog'i qimmatbaho oltin uzuklar bilan bezatilgan cho'zinchoq panjasini uzatdi. (M.Ismoiliy, Farg'ona t.o.) Samarqand podshohiga oltin-kumush sovg'alar..*

⁶¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдди, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.311

qimmatbaho sarupolar in'om qildilar. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar) Qimmatbaho metallarga platina, palladiy, osmiy va ularning bir-birlari va boshqa oddiy metallar bilan hosil qilgan qotishmalari kiradi. «Fan va turmush». Qimmatbaho (yoki qimmatli) qog'ozlar O'z egasiga mulkka egalik huquqini va daromad ko'rinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari – aksiya, obligatsiya, akkreditiv, veksel, chek va sh.k. *Ushbu Nizom qimmatbaho qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarishni lisen-ziyalash tartibini belgiladi.* Gazetadan. 2 ko'chma Bahosi yo'q, bebaho. Qimmatbaho, gavharga teng so'zlaringiz yaramga malham, dardimga davo bo'ldi. «Sharq yulduzi».

QIMMATFURUSH - [a. + f. – qimmat sotuvchi] Boshqalarga qaraganda balandroq narx bilan sotuvchi savdogar⁶². *Qimmatfurushlar go'sht narxini 4000 so'mga, hatto 3800 so'mga tushirishdi.* Gazetadan.

QIMMATLANMOQ - Narxi, bahosi oshib qimmat bo'lmoq⁶³. *Domlani bunchalik shoshirgan narsa.. binokorlik materiallari kundan-kunga qimmatlanarmikan, deb o'ylashi edi.* (A.Qahhor, Sarob)

QIMMATLASHMOQ - Tobora qimmat bo'lmoq, narxi, bahosi oshib, qimmat bo'lib bormoq⁶⁴. *G'arb mamlakatlarida san'at asarlarining narxi haddan tashqari qimmatlashib boryapti.* Gazetadan.

QIMMATLI - 1 Qimmat turadigan, qimmatbaho. Qimmatli buyum. *Go'ng ostidan sandiq-sandiq qimmatli mollar, toy-toy gazlamalar va boshqa qimmatli narsalar chiqa boshlagan*⁶⁵. (S.Ayniy, Qullar) 2 ko'chma Bahosi yo'q, bebaho, qadrli, aziz. *Oiladagi osoyishtalik – har qanday boylikdan qimmatlidir.* Gazetadan. *Gulorning bir tabassumi uning uchun hamma narsadan ma'nodor, turmushning hamma zavqlaridan ulug' va qimmatli edi.* (Oybek, Tanlangan asarlar) 3 ko'chma ma'noda, ko'p foydali, juda kerakli. Qimmatli maslahat. Qimmatli fikr. Qimmatli ma'lumotlar.

⁶² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.312

⁶³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.312

⁶⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.311

⁶⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.311

QIMMATSIRAMOQ - Narxini, bahosini baland deb bilmoq, qimmat deb hisoblamoq⁶⁶. U paltoni qimmatsirab olmadi.

QIMMATSIZ - Hech narsaga arzimaydigan; qadr-qimmatini yo‘q, qadrsiz⁶⁷. *Kishi.. madaniyatning hamma sohalarida qimmatsiz narsalar bilan qanoatlanishga odatlanish bilan o‘zini o‘zi qashshoqlantiradi. Gazetadan.*

QIMMATSIZLANMOQ - kam qo‘ll. - 1 Narxi, bahosi pasayib, arzon bo‘lib qolmoq, arzonlashmoq⁶⁸. 2 ko‘chma Qadr-qimmatini yo‘qotmoq, qadrsizlanmoq.

QIYMAT - [a. – boylik, qimmatbaho narsa; qadriyat; narx, baho; qiymat] 1 - iqt. Tovar narxi. 2 Pulning xarid qobiliyati; muayyan bozor narxlari darajasida pul birligi hisobiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori⁶⁹. Binokorlik ishlarining qiymati ancha kamaytirildi. 3 - iqt. Tovar ishlab chiqaruvchilarning tovarda gavdalangan va unda moddiylashgan ijtimoiy mehnati. 4 Savdo-sotiqda: narx, baho. Mollarning qiymati. 5 ko‘chma Kishi yoki narsaning turmushda tutgan o‘rni, ahamiyati, qadri. *Otabekning.. yozgan xatini o‘qib eshitish Kumush uchun katta qiymatga molik edi. (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar) 6 mat. O‘zgaruvchan miqdorning ma’lum sharoitdagi kattaligi. Iksning qiymati. 7 O‘lchov asboblari shkalasining har bir bo‘limi ifodalagan kattalik. 8 - s.t. Qimmat. Bu kishi: -Qiymat behikmat emas, arzon beillat emas, buning tagida bir illat bordir, sabr qilaylik, – deb lanjlik qildilar. (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari)*

TOVAR - 1 iqt. Talab, ehtiyojni ta‘minlovchi barcha narsa, mahsulot; sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasida oldi-sotdi, bozor munosabatlari obyekt⁷⁰. *Tovar ayirboshlash. Tovar birjasi. Ammo xotirjam bo‘ling, men sizni tovarlardan siqmayman. (I. Rahim, Chin muhabbat). 2 esk. Matoning ipakdan to‘qiladigan, tagi bilan gulining rangi bir xil, yaltiroq bir turi. Oq tovardan ko‘ylagim Ko‘k tikanlar ilmasin. «Qo‘shiqlar». Shahzodaning ko‘ylagini yirtib tashladi, tovar peshmatini bir tomonga irg‘itdi-da.. bir qo‘li bilan ko‘ksiga chang soldi.. (K.Yashin, Hamza)*

⁶⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.311

⁶⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.312

⁶⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.312

⁶⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.330

⁷⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.128

TOVARSHUNOSLIK - Savdo obyekti bo'lmish tovarlar, ularning navlari, xususiyatlari, sifatlari, iste'moliy ahamiyati haqidagi bilimlar sohasi va ularni egallagan kishining kasbi⁷¹. *Olimlar Hojinova yoqlagan dissertatsiyada to'qimachilik tovarshunosligini.. boyitadigan yangi ma'lumotlar borligini ta'kidladilar.* (M.Jo'ra, Quyoshdan nur emganlar)

SAVDO-SOTIQ - Oldi-sotdi muomalasi⁷². *Bozor sotuvchi va oluvchilar bilan gavjum, savdo-sotiq ishlarini terim mavsumida dalaga ko'chirish g'oyatda muhimdir.* Gazetadan.

SAVDOGARLIK - Savdo-sotiq bilan shug'ullanish, savdogar kasbi⁷³. *Mirzakarimboy bolalik chog'idanoq ota kasbi – savdogarlikka o'rgandi, gilam navlarini ajratadigan bo'ldi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

SAVDOGARCHILIK - ayn. savdogarlik⁷⁴. - [Fazliddin:] *Har bir ish o'z vaqtida yarashadi, lekin o'shanda ham do'konga erta borib, kech qaytaman. Savdogarchilikning taomili shu.* (Oybek, Tanlangan asarlar). - [Qushbegi:] *Marg'ilonga nima yumush bilan kelgan edingiz - [Otabek:] Savdogarchilik bilan, taqsir.* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar)

SAVDOLASHMOQ - 1 Molning narxi haqida tortishib, o'zaro kelishmoq⁷⁵. *Uzoq savdolashuvdan keyin Bashirjon yana yigirma besh so'm chiqarib berdi.* (N.Aminov, Suvarak) 2 *Umuman, biror oldi-berdi haqida kelishmoq. Ahmad aka uyda ekan. Sovchilar bilan uzoq savdolashdi.* «Mushtum».

BOZOR – [f.– bozor; savdo rastasi] 1). Aholi savdo-sotiq qiladigan maxsus joy, maydon⁷⁶. *Otang – bozor, onang – bozor.* (Maqol) *Aql bozorda sotilmas.* (Maqol) *Yurt boy bo'lsa, uning bozori ham to'kin bo'ladi.* (U.Normatov, Talant tarbiyasi) *Bir aylanib kelay, deb Quva bozoriga chiqdim.* (S.Ahmad, Ufq) *Bozor qilmoq 1) bozordan ubu narsalar olmoq, xarid qilmoq, xarj qilmoq. Siddiqa bozor qilgani ketdi.* (S.Zunnunova, Ko'zlar) *Nusratbek ikki kun ertalab o'zi bilan to'rva*

⁷¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.128

⁷² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.415

⁷³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.414

⁷⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.414

⁷⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.415

⁷⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

olib ketib, ishdan keyin bozor qilib keldi. (S.Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi); 2) shovqinsuron qilmoq, to‘polon ko‘tarmoq. Shunday joyda savdosotiq qilinadigan kun. Oyda-yilda bir bozor, uniyam yomg‘ir buzlar. (Maqol) Bugun bozor bo‘lgani uchun Yodgor kech uyg‘ondi. (O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol) Qo‘yavering, bugun bozorku, birpas dam olsinlar. (O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq sol) Bozor(i) kasod Talab bo‘lmagan, o‘tmay qolgan narsa, mol haqida.Ammo, – davom etdi Gulandom, – bozor kasodligidanmi yo ishi yaxshi unmaganligidanmi, dadam to‘quvchilikdan yolchimadi. (Oybek, Tanlangan asarlar) Bozor kuni – . bozor 2). Bozor kuni, odam qalin. (Oybek, Tanlangan asarlar) Bozor ko‘tarmaydi 1) bu narxga bozorda hyech kim olmaydi; 2) ko‘chma s.t. boshqalarga yoqmaydi, hech kim tinglamaydi. ..ishxonalarda, – iqsa ko‘pchilik bilan muomala qilinadigan joylarda ..dag‘allik va m– avozchiliklarni bozor ko‘tarmaydi. (T.Alimov, Iljaying, asakangiz ketmaydi) Bozor non(i) Sotish uchun tayyorlanadigan maxsus non navi. Hayal o‘tmay, bir choynakda ko‘k choy, siri ko‘chgan patnisda to‘rtta bozor noni ko‘tarib keldi Qudrat. (M.Ismoilij, Farg‘ona t.o.) Bozor qaytdi Bozor vaqti tamom bo‘lib, bozorchilar qaytadigan vaqt. Bozorga solmoq 1) molni sotish uchun bozorga olib kirmoq, xaridga qo‘ymoq. Gajdumbek bozorga borsa, Hamza bir qulni bozorga solib turibdi. «Go‘ro‘g‘li». Erta barcha xaloyiqlar keladi, Quli, cho‘risini bozor soladi. “Nurali”; 2) ko‘chma diqqatni jalb qilish uchun biror narsani ko‘zko‘z qilmoq, aylantirib, ko‘rsatib yurmoq. Bozor qizigandan keyin, otni minib, u yoqbu yoqqa chopib, qamchilab, sakratib o‘ynatib, bozorga sola berdi. “Hasanxon”. o‘z ishini bitirish uchun tuyg‘ularini bozorga solishdan toymaydi. (S.Karomatov, Oltin qum) Bozori chaqqon 1) xaridori ko‘p bo‘lgan, tez o‘tadigan mol, narsa haqida.Marg‘ilonda gazmol bilan poyabzalning bozori chaqqon, – dedi Homid. (A.Qodiriy, O‘tgan kunlar) “Turkistonda o‘rik bozori chaqqon ekan, sotib kelay”, deb bahona qildim. (S.Siyoev, Yorug‘lik);

2) ko‘chma ehtiyoj katta, talabgorlari ko‘p bo‘lgan. Imomlikning bozori chaqqon bo‘lib ketganidan bizga o‘xshash o‘rtacha ahli ilmlarga shafqat ko‘zi bilan boquvchi bo‘lmay qolgan edi. (G‘ayratij, Dovdirash). Tabibning bozori chaqqon hovlisida kamdankam bo‘lar ekan. (Mirmuhsin, Me‘mor). Bozori o‘tmadi 1.)

bozorda o'tmay, sotilmay qoldi; 2) ko'chma o'ziga yoki gapiga tarafdor chiqmadi; nomeri, hiylanayrangi o'tmadi. Bozor(ini) olmoq yoki bozor qilmoq Bozorga borib, savdosotiq ishlarini bitirib kelmoq. Bozoringni o'zing qil, tegirmoningni o'zing tort! Maqol. Kech bilan bozorni olib, somon sotib qaytgan tuyachining tuyasiga ikkitaikkita mingashib, chopon bozorga qarab yo'l soldik. (G'.G'ulom, Shum bola). Boriga bozor – . boriga baraka q. baraka. o'zini bozorga solmoq salb. o'zini elga ko'z-ko'z qilmoq. Agar sevgining nimaligini bilsangiz, yuzingizdagi pardani yirtib tashlab, o'zingizni bozorga solib o'tirmas edingiz, Jo'raxon! (M. Ismoilov, Farg'ona t.o.) Lof urib, o'zini bozor solarmi Lof bilan qo'lidan bir gap kelarmi «Alpomish». ko'chma G'alag'ovur, chug'urchug'ur, shovqinsuron, sho'xlik holati. Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor. (Maqol) Bugun dala shiyponida bozor bo'ldi. Hamma sizdan darg'azab, raislikdan tushirmoqchilar. (Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli) Munira tug'ruqxonadan chiqqan kuni uy bozor bo'lib ketdi. (F.Musajonov, Himmat) Tong yorishib, gujumlarda qushlar bozori boshlangan edi. (S.Siyoev, Yorug'lik) iqt. Sotuvchilar bilan xaridorlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash munosabatlari. Jahon bozori. Tashqi bozor. Ichki bozor. Bozor islohotlari. Bozor xo'jaligi. Bozor ishtirokchilari tovar va xizmatlarni pul vositasida ayirboshlash yuzasidan munosabatlarga kirishadilar. "O'ZME". Dunyo bozorida terilarimizning narxi tushmasa deymen. (S.Ahmad, Yulduz) Bozor iqtisodiyoti Tovarpul munosabatlariga asoslangan, turli mulkchilikka hamda iqtisodiy erkinlikka tayangan va raqobat asosida tartibga solib turiladigan demokratik iqtisodiyot. Bozor muvozanati Bozordagi talab va taklifning miqdoran va tarkib jihatidan birbiriga muvofiq kelishi. ko'chma Taqdir, qismat. Izinda jo'rasi ko'rmakka zordir, Ma'shuqlik deganing qiziq bozordir. "Qo'shiqlar". Qurilganda ishq savdoning bozori, o'ynabkulib shu kun tursa dildori. «Erali va Sherali». ko'chma Biror harakat yoki faoliyatning haddan oshishi, avjiga chiqishi, qizishi. o'lim bozori (urush). Gap bozori. Feruza bilan Norqo'zining to'yi ovoza bo'lgandan beri "Mehnat – rohat" qizlarining gap bozori qizidi. (H.G'ulom, Senga intilaman) Xuroson mamlakatida o'limning bozori qizib, xarob bo'lgan binolar ustida boyqushlar sayrashga kirishdi. (M.Osim, Ajdodlarimiz qissasi) Ajalning bozori shunday qizidi, Qizil qonga tulpor otlar

to'zidi. *Ergash Jumanbulbul o'g'li. Bazmi jamshidlarda, ko'nglim tilamagan davralarda, safsata bozorlarida kunlarim tamaki tutuniday ko'kka uchdi.* (X. Sultonov, Onamning yurti) Bozor, Bozorxon (erkaklar va ayollar ismi).

BOZOR-O'CHAR – Bozor, savdosotiq va ular bilan bog'liq bo'lgan ikirchikirlar⁷⁷. U – [Bek aka] *savdo-sotiq, bozoro'charga ayolni aralashitirmas, irim qilardi.* (S. Nurov, Narvon.) *U kishi ishlay qolsin, deb bozoro'charga yugurtirmadim.* (S. Nurov, Narvon.) *Axir, siz ham bunday turib, ko'chaga chiqsangiz, odamlarday bozoro'char qilsangizchi! «Yoshlik».*

BOZORBOP – Bozor suvadigan, xaridor yoqtiradigan; bozorgir, tezketar. Bozorbop mol⁷⁸. Ular bebozor kunlari shahardagi magazinlarni kezib, bozorbop mollarni to'playdilar. *Gazetadan. Katta uchastkaning tevaragi va sahni bozorbop ekinlar bilan band edi.* (Oybek, O.v. shabadalar)

O'LCHAM – savdoda ko'p ishlatiladigan so'zlar(ruscha razmer) Narsaning hajmi yoki katta-kichikligini ifodalaydigan raqam ko'rsatkichi; o'lchov; razmer⁷⁹. O'lchami 3 m bo'l-gan xona. 500 sm o'lchamdagi idish. Bosh kiyim o'lchami. *Qadimgi yunon olimlari yerning shaklini aniqlash bilan birga, o'lchamlarini topish bilan ham shug'ullanishgan.* “Fan va turmush”.

O'LCHAMOQ – Bu so'z metr sotiladigan tovarlarda ishlatiladi. O'lchov asbobi vositasida narsaning uzunligi, o'lchamini belgilamoq⁸⁰. *Yog'ochning uzunligini o'lchamoq. Maydon sathini o'lchamoq. Oqayotgan suv miqdorini o'lchamoq. yetti o'lchab, bir kes.* (Maqol). *Qani, yaxshi qiz, o'rningizdan turing, bo'yingizni o'lchaymiz.* (I. Rahim, Ixlos). *Sotuvchilardan biri sut o'lchamoqda.. “Mushtum”. 2 Fikr-mulohaza bilan chamasini, hisobini qilmoq, belgilashga harakat qilmoq. -Kechasi bir mahalgacha gaplashib, hamma bo'ladigan gapni o'lchab, chamalab ko'rdik, – dedi chol.* P. Tursun, O'qituvchi. - [Hasanali] *Bu ikki turli masalaning o'ng-tersini ay-lantirib muhokama qildi va o'lchadi.* (A. Qodiriy, O'tkan kunlar). O'z gazi bilan o'lchamoq - q. Gaz

⁷⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

⁷⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.120

⁷⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.521

⁸⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

TAROZI -Bu soʻz savdo-sotiqda eng koʻp qoʻllanuvchi soʻz hisoblanadi. [f. – vazn oʻlchash asbobi] Ogʻirlik oʻlchash asbobi⁸¹. Qoʻl tarozi. Pallali tarozi. Tarozi pallasi. Tarozida tortmoq. *Ochilvoy baliqtutning mahkamroq shoxiga qoʻl tarozi osib, paxtalarni peshma-pesh oʻlchab olishga tushdi.* (N. Aminov, Tillo tabassumlar). *Aql tarozisi bilan tortmoq (yoki oʻlchamoq) - Aql bilan baholamoq. Keyin dadamning ahvolini oʻylab, aql tarozisi bilan tortib koʻrib, taqdirga rozi boʻldim.* (Oybek, Tanlangan asarlar.)Tarozi bosadigan - 1) salmoqli, salmoqdor, vaznli. Ozgʻin mol goʻshti tarozi bosmas ekan. «Mushtum»; 2) *koʻchma asosli, jiddiy. Tarozi bosadigan dalillar toʻpladi.* (S. Anorboev, Oqsoy). *Taroziga solmoq - 1) tortish uchun taroziga qoʻymoq; 2) koʻchma faktlarni bir-biriga taqqoslab, solishtirib, oʻylab, mulohaza qilib koʻrmoq. Keling, soʻzlaringizni taroziga solaylik, puchmi yoki tosh bosadimi, darrov maʼlum boʻladi.* (Sh. Rashidov, Boʻrondan kuchli); 3) *koʻchma oʻzini yoki oʻz ishini pesh qilmoq, oʻziga yoki oʻz ishiga ortiq baho bermoq. Qori oʻzini taroziga solib, men bor, maktab bor.. deb gerdayib yurar edi.* (P. Tursun, Oʻqituvchi); 4) *koʻchma ortiq maqtamoq. -Hadeb uni - [qizni] taroziga sola bermang, xudo urdi-ketdi, – dedi sovchi.* (S. Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema.)

TAROZIBON - [f. – taroziga qarab, uni qoʻriqlab turuvchi] Tarozida tortuvchi, tarozida tortish ishini bajaruvchi⁸². *Keksa tarozibon keltirilgan paxtalarni tortmoqda.* (Tuygʻun, Brigadir). *Tarozibon gangib qolib, posangi toshni shimining choʻntagiga soldi.* (M. Muhamedov, Qahramon izidan).

DOʻKON - [a. – magazincha; chodir, ustaxona] - 1 Biror narsa sotish uchun maxsus jihozlangan savdo-sotiq xonasi, korxonasi; magazincha⁸³. Baqqol doʻkoni. Kitob doʻkoni. Doʻkon mudiri. *Yomon choʻpon tikonga berar, Yaxshi choʻpon – doʻkonga.* (Maqol). *Amakingizning doʻkoniga yaxshi shohilar, baxmallar kelibdi, olmaysizmi* (Oydin, Oʻzidan koʻrsin). Toʻgʻri gazeta-jurnal doʻkoniga yoʻl oldi. “Sharq yulduzi”. 2 *Hunarmandlarning ishxonasi. Temirchi doʻkoni. Boʻyoqchi*

⁸¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.328

⁸² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.321

⁸³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.755

do 'koni. Sartaroshlik do 'koni. - [Mulla Obid] Tinchimaydi: guzarda yamoqchilik do 'koni ochib, ham o 'zining, ham qishloqning ehtiyojini o 'tab turadi. (A. Qodiriy, Obid ketmon). 3 Hunarmandlar foydalanadigan dastgoh; stanok. To 'quv do 'koni. Do 'kon to 'qisang – bo 'z bo 'lar, Charx yigirsang – to 'n bo 'lar. Maqol. Uylarida do 'koni ham bor: alacha.. janda to 'qiydi. (Sh. Xolmirzaev, Qahramonning so 'nggi kunlari).

IJARA - [a. – biror narsani foyda, haq evaziga berish yoki olish] 1 Biror kimsa yoki tashkilotga tegishli narsadan ma'lum haq to'lab, vaqtincha foydalanish⁸⁴. Ijara xo'jaligi. Uy ijarasi. yerni ijaraga olmoq. Uyni ijaraga qo'yimoq. *Keyingi yillarda kapsanchilar yerni tashlab keta bergan ekan, boylar yerlarini arzon-arzon ijaraga berishibdi. (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). 2 Vaqtincha foydalanish uchun olingan narsa evaziga to'lanadigan haq. Bu uy uchun har oyda o'n ming so'm ijara olinadi. Ijarani vaqtida to'lamoq,.*

SIFATLI – (**kachistva**) Sifat jihatidan talabga to'la javob beradigan, sifati yaxshi. Sifatli mol. Sifatli ish⁸⁵. 2 Aniqlovchi orqali ifodalangan sifatga ega bo'lgan. A'lo sifatli mol. Yomon sifatli mahsulot. *“Mayin jun deb yuqori sifatli qo'y go'shti, dirkillagan dumba yog'idan ayrilamiz deng”, – Sherbek yolg'iz o'zi ketayotib o'yga cho'mdi. (S. Anorboev, Oqsoy). Devorda va yerda qimmatbaho gilamlar, a'lo sifatli chet el garnituri. (F. Musajonov, Himmat).*

QARZ - [a. – qarz; nasiya] 1 Ma'lum muddat o'tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan narsa (pul, buyum, g'alla va sh. k.). Qarz(ga) olmoq. Qarz ko'tarmoq. Qarz(ga) bermoq. Qarzni to'lamoq. Qarzdin qutulmoq⁸⁶. Men sizdan yuz so'm qarzman. Afandining bir baqqoldan ellik uch tanga qarzi bor edi. “Latifalar”. 2 Ishlatganlik, foydalanganlik uchun to'lanadigan narsa (asosan pul). To'lov qarzlari. Soliq qarzlari. 3 ko'chma Kimsaning zimmasidagi vazifa, majburiyat, burch. *Yoshning hurmati – qarz, Qarining hurmati – farz. (Maqol). O'g'il onasidan qarzin uzganday, Tog' ham oqlayotir ona sutini. «Guldasta».*

⁸⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.301

⁸⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

⁸⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

Adabiyot va san'at arboblarning talabchan kitobxonlar va tomoshabinlar oldida hali qarzi ko'p. (Gazetadan). Qarzga botmoq Zimmasidagi qarzi juda ham ko'paymoq, ko'p bo'lmoq. *Kechagina kimsan – Shomurod boyvachchaning o'g'liman, deb kerilib yurgan Normurod qulog'igacha qarzga botib, kafangado bir yigitga aylandiqoldi.* (O. Yoqubov, Diyonat). Qarzi qiyomat, qiyomat qarzi yoki qiyomati qarz Tiriklikda to'lanishi yoki ado etilishi shart bo'lgan qarz. Qarzi hasana -hasana. Ham farz, ham qarz Albatta qilinishi, bajarilishi shart, degan ma'nodagi ibora. Hazili yo'q. *Uylanish sizga ham farz, ham qarz.* (A. Qodiriy, Mehrobdan chayon). 4 ko'chma *Ado etilishi, bajarilishi shart bo'lgan ish, vazifa. ..rektorat ham uning ikkita imtihondan qarzi borligini hisobga olib, bu qarorni tasdiqlagandi.* (O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol). *Sen humparni qancha so'ksam, yana bo'ynimda qarz qoladi.* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari).

QARZDOR - [a. + f. – qarzi bor, qarzli] 1 Zimmasida qarzi bor (shaxs). Afandi bir sudxo'rdan qarzdor edi⁸⁷. “Latifalar”. *Xo'p, bu narsalarni olsak, sizdan necha pul qarzdor bo'lamiz* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.) Mahalla odamlaridan bir kambag'al bizdan qarzdor edi, uch yuz so'mga yaqin.. Oybek, Tanlangan asarlar. 2 ko'chma Birovning yaxshiligi, xizmati yoki, umuman, kim (lar)dir oldida burchli; burchli bo'lgan shaxs. *Po'latjon akamlar.. bizni maktabda o'qitganlar. U kishidan umr bo'yi qarzdormiz.* (Mirmuhsin, Umid). *Ijodiy xodimlar o'qituvchilar oldida qarzdordir.* (Gazetadan).

TANLAMOQ – (**vebir**) Biror belgi-xususiyati, xislati va sh.k. ga ko'ra ajratmoq, belgilamoq⁸⁸. *Qovun tanlamoq. Qo'yning semizini tanlamoq. Polvon uchinchi dafa keltirilgan toshlar ichidan.. bir toshni tanlab oldi-da, yaxshilab artishga va bir tomonini yo'nishga buyurdi.* (A. Qahhor, Ko'r ko'zning ochilishi). *Unga qiz tanlash, qishloqning eng birinchi qizini topib berish onaning ishi emasmi* (I. Rahim, Ixlos). *..yosh tolga chiqib olgan yigit boltacha bilan silliq shoxlarni tanlab kesardi.* (O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol). 2 *Ma'qulini belgilamoq, ma'qul topmoq, o'zi uchun ma'qul deb bilmoq. Kasb tanlamoq. Eshakning tanlagani*

⁸⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдди, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.320

⁸⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4 жилдди, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.215

– *sho‘ra. Tanlagan yo‘lidan qaytmaslik. Bog‘ning eng «tubi»da, serdaraxt va pastqamlikda kafe bor. Ahmad shu kafeni tanladi.*

(F. Musajonov, Himmat). 3 *Umuman, belgilab, ajratib olmoq. -Qayoqqa bo‘lardi, uyga-da, – qo‘rslik bilan javob berdi chol. – Har kim o‘z molini tanlab olsin, degan buyruq chiqibdi-ku!* (S. Ahmad, Hukm). Tanlab (yoki tanlab-tanlab), tozisinga uchramoq - Tanlab-tanlab, eng yomoniga, nobopiga uchramoq.

CHAKANA - [f. •] 1 Donalab, maydalab yoki kichik to‘p bilan sotiladigan va sotib olinadigan. Chakana savdo⁸⁹. Chakana narxlarni o‘zgartirish mumkinligi, shubhasiz, hozirgi paytda eng munozarali masaladir. Gazetadan. 2 *Unchalik ahamiyatga ega bo‘lmagan; arzimas, mayda-chuyda. Xosiyat xolaning erlari ham chakana paxtakor bo‘lmagan ekanlar.* (R. Fayziy, Cho‘lga bahor keldi). *Go‘sht-yog‘ o‘z qo‘lingizda. Daromad ham chakanamasdir* (S. Anorboev, Oqsoy). *Chakana gapga quloq yo‘q. Ish kechikadi.* (H.Nazir, So‘nmas chaqmoqlar.) 3 - *shv. Mayda chorva mollari, qo‘y-echki va aholiga tegishli shunday mollarni boquvchi. Shu kundan e‘tiboran askar chakana cho‘pon bo‘ldi.. Adirda uzun kun chakana mol boqdi.* (T. Murod, Ot kishnagan oqshom.)

TANNARX - [tannarx] iqt. Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hamda ishlar bajarish yoki xizmat ko‘rsatish uchun qilingan jami joriy xarajatlarining pul shaklidagi ifodasi; mahsulotning ish haqi va ishlab chiqarish xarajatlaridan iborat o‘z narxi⁹⁰. Mahsulot sifatining yomonligi, tannarxining qimmatlashgani haqida nega lom-mim demaysiz. «Mushtum». *Tuproqqa qo‘shiladigan polimerlarning tannarxi uncha qimmat emas.* (S. Karomatov, Fan – bizning Kompasimiz).

OLDI-SOTDI - 1 Narsa, mol olish va sotish, savdo muomalasi; savdo. Oldi-sotdi qilmoq⁹¹. *Noib janoblarining yasovullari hayhaylashib, omadi yurishmay, oldi-sotdisini tugatolmay qolgan bozorчилarni ham haydab kelmoqdalar.* (X.To‘xtaboev, Yillar va yo‘llar). Ko‘rgazma davomida tadbirkorlar o‘zaro sheriklik

⁸⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

⁹⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.330

⁹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.124

bitimlarini tuzishlari, oldi-sotdi shartnomalarini imzolashlari ham mumkin..
Gazetadan. 2 - huq. Fuqarolik huquqiy munosabatlarida keng tarqalgan, asosiy
vazifasi tovar-pul almashinuvini amalga oshirishdan iborat shartnoma.

FOYDA - [a. – afzallik, imtiyoz; hayon, naf, bahra] 1 Biror kimsa yoki narsa uchun bo‘ladigan naf, manfaat; ijobiy natija⁹². *Yolg‘on aytib, foyda ko‘rsang, oxiri zarar toparsan.* Maqol. *Siringizni mendan yashirmang, balkim foydam tegib qolar.* (K.Yashin, Hamza). *Navoiy el foydasi va davlat manfaati uchun bo‘lgan bu vazifaga, o‘z odati bo‘yicha e’tiroz qilmadi.* (Oybek, Navoiy). 2 *Qilingan xarj bilan olingan daromad o‘rtasidagi farqdan tashkil topgan summa, mablag‘; daromad. Qamishkapaliklar Zokirxo‘ja qassob to‘g‘risida gap borsa, «har bir so‘yilgan qo‘ydan ikki hissa foyda ko‘rmasa, o‘zini changakka osadi», deb ta‘riflar edilar.* (P.Tursun, O‘qituvchi). *Menimcha, tijorat paydo bo‘lgan zamondan boshlab bunday mo‘l foydani hyech kim ko‘rgan emas.* (Oybek, Tanlangan asarlar). Foyda qilmoq - 1) ijobiy natija bermoq, o‘zining foydali ta‘sirini ko‘rsatmoq. Dori foyda qildi. Xalq juda ko‘p shishlarni paxtadog‘ bilan davolaydi. *Agar bu shish gazak shishi bo‘lsa, paxtadog‘ foyda qiladi, lekin rak shishi bo‘lsa, avj oldiradi.* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari); 2) biror ish, sohadan iqtisodiy manfaat topmoq, daromad olmoq. Tadbirkor dehqonchi-likdan katta foyda qiladi. 3 *Qarzga berilgan puldan foydalanganligi uchun qarzdordan kreditor oladigan qo‘shimcha pul, haq; foiz. Qarzimni uzganman, faqat foydasi qolgan.* (S.Abdulla, Tanlangan asarlar).

ZARAR – a. shikast, ziyon; yo‘qotish] – 1).. Shikast, buzilish; ziyon-zahmat. Zalda hamma bir narsa to‘g‘risida gaplashardi: “*Do‘l qattiq yog‘di. G‘o‘zaga zarar qilmasmikan*” (R. Fayziy, Cho‘lga bahor keldi)⁹³. 2). Savdo-sotiqda(n) ko‘rilgan ziyon; umuman, moddiy yutqiziq. *Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgan direktor teatrga bir yuz yetmish so‘mu to‘rt tiyin zarar keltirgan shu tomoshabinning yoqasidan bo‘g‘ib, ko‘chaga opchiqib tashlagudek o‘qraydi.* (S.Ahmad, Saylanma). *O‘zingizga ma‘lum, savdo ahli zararni yoqtirmaydigan, foyda talab xalq bo‘ladi.*(K. Yashin, Hamza.)*Bizdan Mirzakarimboy hyech vaqt zarar ko‘rgani yo‘q. Paxta yildan-yilga*

⁹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдди, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

⁹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдди, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

mo'l bo'lib, foydasi ham oshib turibdi. (Oybek, Tanlangan asarlar). 3). Kishi organizmiga, sog'ligiga yomon ta'sir; jismoniy ziyon, shikast. Tamakining zarari. Zarar bermoq Shikastlamoq, yarador qilmoq. Kumush, otasining oldiga qanot yozgan kabi yugurib, uning soqolini silar ekan, so'radi: -Sizga zarar bermadilarmi, otajon (A. Qodiriy, O'tkan kunlar). Zarari yo'q Hechqisi yo'q, zararsiz, hyech narsa qilmaydi. Zarari yo'q, Rahim ota, hozirgi xizmatingiz ham yoshlarnikidan qolishmaydi – dedi Nazarov].

(R. Fayziy, Cho'lga bahor keldi). -*Zarari yo'q, pakkini olib keling, yangisini qaziymiz! – dedi Zoyirjon kulumsirab. (O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol.) Zarari tegmoq Moddiy yoki jismoniy ziyon, shikast yetkazmoq; yomonlik qilmoq. Ishqilib, do'stlariga zarari tegmasa bo'ldi – boshqasidan qo'rqmaydi. (O.Yoqubov, Er boshiga ish tutsa).*

OLIBSOTAR - Arzonga mol olib, qimmatga sotuvchi, mayda savdogar⁹⁴. *Paxta suvrati solingan chinni idishlar olib-sotarlarning uyida qalashib yotsa. (Mirmuhsin, Ildizlar va yaproqlar).*

DALLOL - [a. – jarchi; vositachi] - 1 Savdo-sotiqda oluvchi bilan sotuvchi o'rtasida vositachilik qiluvchi, molga narx qo'yib, ularni kelishtiruvchi kishi⁹⁵. El nazar qilmasa, eshak bozoriga dallol ham bo'lolmaysan! (Maqol). *Tilning uzuni dallolga kerak. (Maqol). Muhsin guppi avvaldan dallol yollab olgan shekilli, ikkovlashib bir turkmandan gilam savdolashardi. «Sharq yulduzi». 2 salb. O'rtada turib, nojo'ya ishlarni bitishtiruvchi, murosaga keltiruvchi, vosi-tachi. - [Qo'ziboy:] ..Rahimga nima deb aytaman-a O'rtada dallolmisan, demaydimi! H. Nazir, So'nmas chaqmoqlar. Sizga o'xshash dallollarga hojat yo'q. Men sizni xo'p sinaganman. Siz xalq bo'ronini to'smoqchimisiz (Oybek, Tanlangan asarlar) 3 Dalla, qo'shmachi. Gulsanam bola chog'ida onasi bilan dalada ishlashga o'rganib qolgan edi. Endi eshikka chiqarmay qo'yishdi: xonning dallollaridan qo'rqadilar. (Oydin, Oltin uzukka olmos ko'z). - [G'ofir:] Axir dallol deganda paranji bo'ladi-da, choponni yigit kishi kiyadi. Hamza, Boy ili xizmatchi. Iyagida uch-to'rt tola soqol ko'zga*

⁹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

⁹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.653

tashlangan, baland bo‘yli, baquvvat, erkaksimon dallol kampir uni - [kuyovni] yetaklab, palak ostidan qizga keltirdi. (Oybek, Tanlangan asarlar)

MAHSULOT - **tovar**[a. – “mahsul” s. ko‘pl.] Ishlab chiqarilgan narsa; mahsul (lar). Yalpi mahsulot. Chorvachilik mahsulotlari⁹⁶. Sanoat mahsuloti. *Bo‘yoq olish uchun neft chiqindilari va toshko‘mirni kokslashdan olingan mahsulotlar asosiy xomashyo hisoblanadi.* «Fan va turmush». Intellektual mahsulot Ma’naviyat, ilm-fan, texnika sohasidagi izlanishlarning natijalari, adabiyot va san’at asarlari majmui.

CHEGIRMA-Biror miqdordagi pul, mablag‘,narsa va shu kabilardan chegirib olingan qism,hissa.

CHAYQOV-olib-sotarlik; olib-sotish,olib-sotuv.*Katta chayqov bozorida yurganday boshi g‘uvvulab ketdi.*(Karamatov.s.”Hijron“)

Keltirilgan so‘zliklarni savdo turi va sohasiga ko‘ra ajratganimizda, quyidagi ko‘rsatkichlar kelib chiqdi (3-jadval).

3-jadval

| | | |
|---|---|--|
| Chorvachilikka oid savdo-sotiq leksikasi | <i>Barakasini bering</i> | 10 dan ortiq. M:tusoqlandi-ko‘paydi ma’nosida.Boyiditugadi ma’nosida |
| Kiyim-kechakka oid savdo-sotiq leksikasi | <i>Turkiya moli, brend, skidka</i> | 30 dan ortiq M:chegirma, sifat, tur va.boshqalar. |
| Oziq-ovqat mahsulotlariga oid savdo-sotiq leksikasi | <i>Optom tovar, o‘zimizning bog‘dan</i> | 30 dan ortiq M:muddat , toza,sifat va boshqalar |
| Dori-darmon mahsulotlariga oid savdo-sotiq leksikasi | <i>Rossiya yoki Germaniya dorisi</i> | 20 dan ortiq M:muddat,chiqish joyi va boshqalar. |

Shu singari, saralangan so‘zliklarni o‘z va o‘zlashma qatlamga mansubligiga ko‘ra ajratdik (4-jadval).

⁹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006, -Б.102

4-jadval

| T/r | So'zlar | Turkumi | Qaysi tildan olingan |
|------------|----------------|----------------|-----------------------------|
| 1 | Arzon | Sifat | Forscha |
| 2 | Arzongaron | Sifat | Forscha |
| 3 | Arzongarov | Sifat | Forscha |
| 4 | Arzonsinmoq | Fe'l | Forscha |
| 5 | Arzonlashmoq | Fe'l | Forscha |
| 6 | Arzonchilik | Ot | Forscha |
| 7 | Ayirboshlash | Ot | Arabcha |
| 8 | Bozor | Ot | Forscha |
| 9 | Bozorbop | Sifat | Forscha |
| 10 | Bozor-o'char | Ot | Forscha |
| 11 | Barter | Ot | Arabcha |
| 12 | Do'kon | Ot | Arabcha |
| 13 | Dallol | Ot | Arabcha |
| 14 | Daromad | Ot | Arabcha |
| 15 | Eksport | Ot | Inglizcha |
| 16 | Foyda | Ot | Arabcha |
| 17 | Hisob | Ot | Arabcha |
| 18 | Hisoblashmoq | Fe'l | Arabcha |
| 19 | Hisoblamoq | Fe'l | Arabcha |
| 20 | Hisob-kitob | Ot | Arabcha |
| 21 | Hissa | Ot | Arabcha |
| 22 | Ijara | Ot | Arabcha |
| 23 | Import | Ot | Inglizcha |
| 24 | Ko'tara | Sifat | O'zbekcha |
| 25 | Ko'tarafurush | Sifat | O'zbekcha |
| 26 | Ko'tarasiga | Ravish | O'zbekcha |
| 27 | Kolkulatsiya | Ot | Ruscha |
| 28 | Kirim | Ot | O'zbekcha |
| 29 | Kassa | Ot | Lotincha |
| 30 | Lizing | Ot | Inglizcha |
| 31 | Mahsulot | Ot | Arabcha |
| 32 | Muddat | Ot | Arabcha |
| 33 | Narx | Ot | Arabcha |
| 34 | Naqd | Ot | Arabcha |
| 35 | Naf | Ot | Arabcha |
| 36 | Nasiya | Ot | Arabcha |
| 37 | Oldi-sotdi | Ot | O'zbekcha |

| | | | |
|----|-----------------|-------|-----------|
| 38 | Olibsotar | Sifat | O'zbekcha |
| 39 | Optom | Sifat | Ruscha |
| 40 | Qimmat | Sifat | Arabcha |
| 41 | Qimmatbaho | Sifat | Arabcha |
| 42 | Qimmatfurush | Sifat | Arabcha |
| 43 | Qimmatlanmoq | Fe'l | Arabcha |
| 44 | Qimmatlashmoq | Fe'l | Arabcha |
| 45 | Qimmatli | Sifat | Arabcha |
| 46 | Qimmatsiramoq | Fe'l | Arabcha |
| 47 | Qimmatsiz | Sifat | Arabcha |
| 48 | Qimmatsizlanmoq | Fe'l | Arabcha |
| 49 | Qiyamat | Ot | Arabcha |
| 50 | Qarz | Ot | Arabcha |
| 51 | Qarzdor | Sifat | Arabcha |
| 52 | Rasta | Ot | Ruscha |
| 53 | Sarf-xarajat | Ot | Arabcha |
| 54 | Savdo-sotiq | Ot | Arabcha |
| 55 | Sifatli | Sifat | Arabcha |
| 56 | Savdogar | Sifat | O'zbekcha |
| 57 | Savdogarlik | Ot | O'zbekcha |
| 58 | Savdogarchilik | Ot | O'zbekcha |
| 59 | Savdolahmoq | Fe'l | O'zbekcha |
| 60 | Tovar | Ot | Arabcha |
| 61 | Tovarshunoslik | Ot | O'zbekcha |
| 62 | Tannarx | Ot | Arabcha |
| 63 | Tejamoq | Fe'l | Arabcha |
| 64 | Tejam | Ot | Arabcha |
| 65 | Tejamkor | Sifat | Arabcha |
| 66 | Tejamkorlik | Ot | O'zbekcha |
| 67 | Tanlamoq | Fe'l | Arabcha |
| 68 | Tarozi | Ot | Arabcha |
| 69 | Tarozibon | Ot | Arabcha |
| 70 | Tijorat | Ot | Arabcha |
| 71 | Ulgurji | Ot | Arabcha |

| | | | |
|----|---------------|--------|-----------|
| 72 | Ulush | Ot | Arabcha |
| 73 | Xarajat | Ot | Arabcha |
| 74 | Zarar | Ot | Arabcha |
| 75 | O'lchamoq | Fe'l | O'zbekcha |
| 76 | O'lcham | Ot | O'zbekcha |
| 77 | G'azna | Ot | Arabcha |
| 78 | Chakana | Sifat | Forscha |
| 79 | Chegirma | Ot | O'zbekcha |
| 80 | Chayqov | Ot | O'zbekcha |
| 81 | Chayqovchi | Sifat | O'zbekcha |
| 82 | Chayqovchilik | Ot | O'zbekcha |
| 83 | Qancha | Olmosh | O'zbekcha |

5-jadval

| So'z turkumlari bo'yicha savdo-sotiqqa oid so'zlarning hisobi | | Turli tillar bo'yicha savdo-sotiqqa oid so'zlar hisobi | |
|---|--------------|--|--------------|
| Ot | 50 dan ortiq | Arab | 45 dan ortiq |
| Sifat | 20 dan ortiq | Fors | 10 dan ortiq |
| Fe'l | 15 dan ortiq | Rus | 20 dan ortiq |
| Ravish | 10 dan ortiq | Ingliz | 10 dan ortiq |
| Olmosh | 10 dan ortiq | O'zbekcha | 20 dan ortiq |

6-jadval

| VARAVARIZMLAR | | |
|---------------|-------------|--------|
| Nalichi | Naqd pul | ruscha |
| Optom | Hamma tovar | ruscha |
| Rasxot | Xarajat | ruscha |
| Pirlavka | Rasta | ruscha |
| Skitka | Chegirma | ruscha |
| Vebir | Tur | ruscha |
| Kashetva | Sifat | ruscha |
| Raspradaje | Sotish | ruscha |
| Nasiya | qarz | ruscha |
| kirizis | bankrot | ruscha |

7-jadval

| | |
|---|--|
| Savdo-sotiqqa oid umumiste'moldagi so'zlar | Savdo-sotiqqa oid ilmiy terminlar |
|---|--|

| | |
|-----------|--------------|
| Arzon | Tannarx |
| Nasiya | Chakana |
| Qarz | Ulgurji |
| Nalichi | o'lcham |
| Optom | Mahsulot |
| Rasxot | Daromad |
| Qarz | Lizing |
| Ijara | Rasta |
| Chegirma | Kolkulatsiya |
| Foyda | Barter |
| Qimmat | Tovar |
| Savdo | Tijorat |
| Olibsotar | Savdolashmoq |
| Dallol | Ko'tara |
| kelishmoq | Qiymat |
| Pul | Baqqol |
| Qarzdor | Attor |

Savdo-sotiqqa oid so'zlarning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanilishi

O'TILda berilgan savdo-sotiqqa taalluqli so'z va so'z birikmalarining ko'chma ma'noda kelishiga ham e'tibor qaratdik. Savdo-sotiqqa doir atamalarning ko'chmada kelgan holatlariga quyidagicha izoh berilgani kuzatildi:

Qimmat -qadr-qimmat;

Qimmat-narxga nisbatan; "Qimmat" ismdir;

O'lcham-razmer o'rnida;

O'lcham- uzunlik o'lchovi;

Foyda-savdoda asosiy atamalardan;

Foyda-zarar so'ziga antonim.

Qarz-nasiya; ko'chma ma'noda kimsaning zimmasidagi vazifa, majburiyat, burch. *Yoshning hurmati* – *qarz*, *Qarining hurmati* – *farz*. (Maqol).


Qarzdor-birovdan pul olgan odamga nisbatan;

ko'chma ma'noda birovning yaxshiligi, xizmati yoki, umuman, kim (lar)dir oldida burchli; burchli bo'lgan shaxs

Savdo-sotiqqa oid so'zlarning maqol va iboralarda kelishi

Otang – bozor, onang – bozor. (Maqol) Aql bozorda sotilmas. (Maqol)
Yurt boy bo'lsa, uning bozori ham to'kin bo'ladi. (Maqol) Bozoringni o'zing qil,
tegirmoningni o'zing tort! (Maqol) Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor.
(Maqol). Yolg'on aytib, foyda ko'rsang, oxiri zarar toparsan. (Maqol.)

Barcha sohalardagi savdo-sotiqqa oid so'zlarning til bo'yicha foizlarda ko'rinishi



Ma'lumki har qanday jamiyatda iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Shu sababli iqtisodiyotga tegishli so'z va terminlar aniq va mantiqan asoslangan bo'lmog'i lozim. Ruscha baynalmilal iqtisodiy terminlar o'zbek tilida aynan tarjimasiz qo'llanilmoqda: *valyuta, dollar, kredit, banknot, akkreditiv, lizing, forfeting, libor* va boshqalar. Ruscha baynalmilal iqtisodiy terminlarning ba'zilari tarjima qilingan yoki uning o'zbek tilidagi muqobillari qo'llanila boshlandi: *anketa-surovnoma, defitsit-taqchil, biznesmen-bizneschi, litsenziya-ruxsatnoma, kapital-mablag'*,

reforma – islohot. Umuman, baynalmilal iqtisodiy soʻzlarni oʻzbek tiliga qabul qilishda koʻp jihatlarni eʼtiborga olish zarur⁹⁷.

Iqtisodiy termin oʻzbek tiliga kirib kelayotganda uning quyidagi jihatlari eʼtibor berish kerak boʻladi:

- terminning oʻzbek tilini tovush tizimiga mosligiga; uning oʻzbekcha muqobili bor-yoʻqligiga;
- tarjima qilish zaruriyatiga;
- iqtisodiy terminning mazmuniga;
- uning sodda va ravonligiga;
- mohiyatiga va talaffuz qilishga qulayligiga.

Oʻrganilgan manbalarga asoslanib oʻzbek tilidagi iqtisodiy terminlarni boyitishda quyidagilarga eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq boʻlar edi:

- oʻzbek tilida iqtisodiy terminlarni oʻrganish va jamlash;
- iqtisodiy terminlarni oʻrgangan olimlarimizni ishlarini oʻrganib chiqqan holda iqtisodiy terminlarni izohlarini toʻla qonli yoritishga harakat qilish;
- zamonaviy terminlarni oʻrganib tadbiiq qilish;
- imkon qadar iqtisodiy terminlarni iqtisodiyot tarmoqlari sohalari boʻyicha yoki boʻlimlarga ajratgan holda lugʻat kitoblarni nashr qilish;
- iqtisodiyot sohalariga ixtisoslashtirilgan oliy oʻquv yurtlarida iqtisodiy terminlarni oʻrganish boʻyicha mahsus fanlarni oʻqitishni jorish qilish;
- iqtisodiyot nazariyasi fanlari oʻqitiladigan fakultetlarda esa belgilangan soatlarda mavzularni iqtisodiyot terminlariga moslash.

Bobga doir xulosalar

Shoʻro davrida yaratilgan lugʻatlarda uchrovchi savdo-sotiq leksikasi tahlil qilindi. Oʻzbek lugʻatchiligi XX asrda katta yutuqlarga erishdi. XI asrda Mahmud

⁹⁷ Насриева Д, Икромов Л. Иқтисодиётга оид терминларнинг шаклланиши ва қўлланилиши.. Oriental Renaissance: Innovative, R VOLUME 1 | ISSUE 5. educational, natural and social sciences (~) ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor.

Koshg'ariy tomonidan boshlangan o'zbek amaliy lug'atchiligi tarixi XX asrga kelib, ham amaliy, ham nazariy ko'rinishda kamol topdi, rivojlandi.

XX asrda o'zbek lug'atchiligi til faning sohasi sifatida qayta shakllandi. Lug'atchilik ishlariga ham amaliy, ham nazariy yondashildi. Rus lug'atchiligi, jahon lug'atchiligi yutuqlari o'rganildi, lug'atchilik nazariyalarining turli yo'nalishlariga doir dissertatsiyalar himoya qilindi. Shunga muvofiq lug'atlar yaratildi.

Mustaqillik davrida yaratilgan lug'atlarda keltirilgan, asosan O'TILda, savdo-sotiq leksikasiga doir leksik birliklar lingvistik tahlilga tortildi, statistikasi amalga oshirildi. Savdo-sotiq leksikasi tematik guruhlandi.

UMUMIY XULOSALAR

Leksikografiya ma'lum amaliy maqsadlar uchun semantik faktlarni aniqlash va aniqlashning optimal vositalarini ishlab chiqadi. Yangi lug'atlar uchun optimal strategiyani ishlab chiqishdagi asosiy muammo lug'atlarni tarkibi bo'yicha ham ulardagi ma'lumotlarning yetarliligi nuqtayi nazaridan ham haqiqiyliги muammosidir. Leksikografiya keng ma'noda til birliklari inventarlarining barcha to'plamini ularga tegishli bo'lgan u yoki bu turdagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Semantik ma'lumotlarni aks etirish eng boy va qiyin.

O'zbek lug'ati tarixi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlarini, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Shu bilan birga u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug'atlardandir. Mahmud Zamaxshariy o'zining "Asos ul-balog'a",

"Muqaddimat ul-adab" asarlari bilan ham amaliy, ham nazariy lug'atning rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

XX asrda o'zbek lug'atchiligi rivojiga A.Zohiriy, A.Qodiriy, Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z.Ma'rufov, Sh.T.Rahmatullayev, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov va boshqalar munosib hissa qo'shdilar. Respublika mustaqilligi tufayli o'zbek lug'ati oldiga yangi davr talablariga javob beradigan entsiklopedik va lingvistik lug'atlar yaratish vazifasi qo'yilgan va bu vazifa o'z o'rnini bilan amalga oshirilmoqda.

Muqaddas kitob – Qur'oni Karimda kishilik jamiyatining faoliyat turlaridan biri iqtisodiyot sohasidagi munosabatlar muhim o'rin tutadi. Chunki, iqtisodiy munosabatlarda insonlarning asosiy fe'l-atvorlari namoyon bo'ladi. Qur'oni Karim ahkamlari insonlarga ilohiy farmoyish sifatida zamindagi barcha insonlarning bir ota-ona Odam alayhissalom va Momo Havo farzandlari, binobarin aka-uka, opa-singil ekanligiga asoslanadi.

Markaziy Osiyo donishmandlaridan at-Termiziy, al-Buxoriylarning to‘plagan Hadisi Shariflari islom olamida eng ishonchli hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslari islom ta’limotidagi fikhning tarkibiy qismini tashkil etadi. Vatandoshimiz Marg‘inoniyning “Hidoya” asari shular jumlasidan.

A.Navoiy jamiyatda muhim tabaqa bo‘lgan savdogarlarning o‘zini ham ikki guruhga bo‘ladi. Birinchi guruh – chet el bilan savdo aloqalari olib boruvchi savdogarlar guruhi. Ikkinchi guruh – mamlakat ichkarisidagi olibsotarlar guruhi. Chet ellar bilan savdo-sotiq olib boruvchi savdogarlarga Navoiy ijobiy qaraydi va ularning faoliyatiga xayrihoxlik bildiradi. Bozorlardagi savdogarlarga, ya’ni olib sotarlarga esa tanqidiy ko‘z bilan qaraydi.

Er. avv. II asrda faoliyat ko‘rsata boshlagan Buyuk Ipak yo‘li dasht va cho‘llar, shuningdek, O‘rta Osiyoning asosan turkiyzabon qabilalari va xalqlari yashagan tog‘lar va tog‘ vodiylari orqali o‘tgan. Shuning uchun turklar gidlar va savdo karvonlari uchun transport vositalarini etkazib beruvchilar kabi xalqaro savdoda faol ishtirok etganlar. Bundan tashqari, ular savdo yo‘llarining ustalari edilar, ularning himoyasi va xavfsizligini ta'minladilar. Qadimgi turklarning xalqaro savdoda tutgan o‘rni tufayli savdoga oid atamalar turkiy tillardan kirib kelgan.

Ma’lumki har qanday jamiyatda iqtisodiyot muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli iqtisodiyotga tegishli so‘z va terminlar aniq va mantiqan asoslangan bo‘lmog‘i lozim. Ruscha baynalmilal iqtisodiy terminlar o‘zbek tilida aynan tarjimasiz qo‘llanilmoqda: *valyuta, dollar, kredit, banknot, akkreditiv, lizing, forfeting, libor* va boshqalar. Ruscha baynalmilal iqtisodiy terminlarning ba’zilari tarjima qilingan yoki uning o‘zbek tilidagi muqobillari qo‘llanila boshlandi: *anketa-surovnoma, defitsit-taqchil, biznesmen-bizneschi, litsenziya-ruxsatnoma, kapital-mablag‘, reforma – islohot*. Umuman, baynalmilal iqtisodiy so‘zlarni o‘zbek tiliga qabul qilishda ko‘p jihatlarni e’tiborga olish zarur.

O‘rganilgan manbalarga asoslanib o‘zbek tilidagi iqtisodiy terminlarni boyitishda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- o‘zbek tilida iqtisodiy terminlarni o‘rganish va jamlash;

- iqtisodiy terminlarni o'rgangan olimlarimizni ishlarini o'rganib chiqqan holda iqtisodiy terminlarni izohlarini to'la qonli yoritishga harakat qilish;

-zamonaviy terminlarni o'rganib tadbiq qilish;

- imkon qadar iqtisodiy terminlarni iqtisodiyot tarmoqlari sohalari bo'yicha yoki bo'limlarga ajratgan holda lug'at kitoblarni nashr qilish;

- iqtisodiyot sohalariga ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy terminlarni o'rganish bo'yicha maxsus fanlarni o'qitishni jorish qilish;

- iqtisodiyot nazariyasi fanlari o'qitiladigan fakultetlarda esa belgilangan soatlarda mavzularni iqtisodiyot terminlariga moslash.

Shu bilan birgalikda omma orasida varvarizmlardan foydalanishni qisqartirib, lug'atlardagi savdo-sotiqqa oid so'zlarni tadbiq qilish kerak deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси. – Халқ сўзи. – 2017. – 23 декабрь.
2. Мирзиёев Ш.М. “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарор. – Халқ сўзи. – 2018. – 6 июнь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – “Халқ сўзи” газетаси. – 2017 йил, 8 февраль. №28 (6722).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

II. Ilmiy risola, maqola, tezis, monografiya, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, dissertatsiya va avtoreferatlar:

1. Абдулла Шеносий. Хикмати тарбия. 2163. Б. 1917.
2. Али Саййид. Луғати ажнабий. -Истанбул. 210 .Б. 1909.
3. Бегматов. Э. Хозирги ўзбек тилининг лексик қатламлари – Тошкент, 1985.
4. Дадабаев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент, 2019. Б. 115.
5. Hamza Zulfikar. Türk Terimcilik Tarihi İçinde Peyami Safa // TDK yayınları Dil ve Edebiyat. Sayı: 607, 2002.
6. Kitab-i mecmu-i tercuman-i turki ve acemi ve mugali. – Ankara, 2000.
7. Konkabayeva N.N. “At-Tuxfa az-zakiya fi əl-lug‘at at-tyrkiya” yeskertkishine tarixilingvistikalik interpretatsiya. Tyrkitanu mamandig‘i boyinsha PhD filosofiya doktori dərejesin alu yshin dayin dalg‘an dissertatsiya.
<https://www.kaznu.kz/content/files/pages/folder17928/Андапта%20Konkabayeva%20N.N..pdf>
8. Маъруфов А. Паронимлар луғати-Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
9. Насриева Д, Икромов Л. Иқтисодиётга оид терминларнинг шаклланиши ва қўлланилиши. Oriental Renaissance: Innovative, R VOLUME 1 | ISSUE

- educational, natural and social sciences (~) ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor.
10. Penglin Wang. On the ethymology of English silk: a case study of IE and Altaic contact // CAJ, vol. 37, 1993, p. 225 – 248.
 11. Qur'oni Karim. Moida surasi, 38-39-oyatlar
 12. Şükrü Haluk Akalın. Türk dili. Yabancı sözlere karşılıklar ve terim çalışmaları // TDK yayınları Dil ve Edebiyat Dergisi. Sayı: 613, ocak 2003. S.9-1.
 13. Yudaxin K. Qisqacha o'zbek-rus lug'ati. 3816 /1927.
 14. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик / Ўзбекистон ФА Тил ва адабиёт институти / - Тошкент., Фан, 1983-1985.
 15. Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия (туркий тил (қипчоқ тили) ҳақида ноёб туҳфа). – Тошкент: Фан, 1968.
 16. Бичик С.В. Словарь экономических терминов Справочник / С.В. Бичик. – Минск: Вышэйшая школа, 2009
 17. Боровков А. Лексика среднеазиатского Тедсира XII-XIII вв. – М., 1963.
 18. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991.
 19. Дадабоев Х "Замонавий узбек лексикографияси ва терминологияси" модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2016.
 20. Ергенекон М. Компаративный анализ лингвистической терминологии в русском и турецком языках. Анкара, 2015.
 21. Иқтисодиётга оид атамалар ва тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Фан 2004.
 22. Иқтисодий атамаларнинг ўзбекча-русча-инглизча луғати. – Тошкент: Шарқ, 2001.
 23. Исломов, З. "Мукаддамоту-л-адаб" асарининг манбашунослик ва матншунослик тадқиқи [Матн] / З. Исломов. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёти, 2020. - 336 б.
 24. Камолиддин Шамсиддин Сирожиддин оғли Торговля у древних тюрков. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журналі. № 4, июль-август, 2018.
 25. Карманный русско-узбекский словарь : 4000 слов для обыден. разговора с оседлыми туземцами Туркестан. края, с прил. крат. грамматики узб. яз. / Сост. д. чл. Стат. ком. С.А. Лапин. - [4-е изд.]. - Самарканд: Самарканд. обл. стат. ком., 1914 (обл. 1915). - V, [2], 114, 63 с.
 26. Қосимова М., Джаббарова Ш., Зияева М. Ўзбек тилида иқтисодга оид атамаларнинг изоҳли луғатини шакллантиришнинг мақсад ва

- вазифалари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil 5/2020 (№ 00049) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
- 27.Махмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. 3 жилдлик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016.
 - 28.Махмуд Замахшарий. Муқаддимат ул адаб. – Лейспиг, 1850. – Б. 180.
 - 29.Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк, уч томлик, III том. – Тошкент: Фан, 1960. 387-388.
 - 30.Мирзо Мехдихон. Мабони ал-луғат. — Тошкент, 2008.
 - 31.Мухаммед Якуб Чинги. Келурнаме. (Староузбекско-таджикско-персидский словарь XVII в.). – Ташкент, 1982.
 - 32.Мухидцинова К. “Санглах” Мирзы Мухаммеда Мехдихана: Автореф. дисс. ... канд.филолог. наук. – Ташкент, 1971.
 - 33.Муҳамедов С. Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати. (Газета текстлари асосида). – Тошкент, Фан, 1982.
 - 34.Наливкин, В.П. Русско-сартовский и сартовско-русский словарь общеупотребительных слов с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда / Сост. В. Наливкин и М. Наливкина. - Казань : Унив. тип., 1884. -478 с
 - 35.Олим Усмон. Ўзбекистонда рус тилининг илк тарғиботчилари. — Тошкент, 1962.
 - 36.Раҳматий С, Қодирий А. Русча-ўзбекча тўла сўзлик луғати, 2 жилдли. – Қозон, 1934. –Б.250
 - 37.Раҳматуллаев Ш. Маматов Ш., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. 1800 га яқин антоним жуфтлик. / Қўчқортоев И.К таҳрири остида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
 - 38.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. — Тошкент - Ўқитувчи, 1978.
 - 39.Раҳматуллаев Ш. Ўзбектили омонимларининг изоҳли луғати. 497 омонифода остига бирлашувчи 1160 дан ортиқ лексема/ Қўчқортоев И таҳрири остида. - Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
 - 40.Раҳматуллаев Ш., Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг имло луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
 - 41.Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент - Ўқитувчи, 1978. –Б.190
 - 42.Рустамов А. Махмуд Замахшарий. – Тошкент: EXTREMUM PRESS, 2010. “Таржумон” - XIV аср ёзма обидаси. – Тошкент: Фан, 1980.

43. С.Раҳматий, А.Қодирий. Русча-ўзбекча тўла сўзлик луғати, 2 жилдли. – Қозон, 1934. –Б.250
44. Тоғаев Т.М. Ашурали Зокирий ва укинг лингвистик мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005.
45. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2 жилдли. – Тошкент: ЎЗМЭ, 1981, - Б.630
46. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006.
47. Умаров Э. А. Янги топилган Навоий асарлари луғати // Узбек тили ва адабиёти, 1991, № 4. – Б. 76-78.
48. Умаров Э.А. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент, 1992.
49. Фаттоҳов Х. Узбек лексикографияси тарихига бир назар // Узбек тили ва адабиёти, 1981, № 3. - Б. 54-55.
50. Хасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик назарий масалалари. - Тошкент, 2012. – Б. 64.
51. Хоксор. Мунтахаб - ул луғат. – Тошкент, 1984.
52. Холмуродова М. “Қутадғу билиг” лексикаси: фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019.
53. Ҳусанов Н. «Луғати чигатойи ва турки усмоний»да изоҳлаш // Узбек тили ва адабиёти, 1982. № 1. - Б. 63- 65.
54. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. 497 омонифода остига бирлашувчи 160 дан ортиқ лексема/ Қўчқортюев И таҳрири остида. - Тошкент: Ўқитувчи, 1986.
55. Муҳамедов С. Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати. (Газета текстлари асосида). – Тошкент, Фан, 1982.
56. Махмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. 1-2-3 жилдлик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016.

Elektron adabiyotlar va internet manbalari

1. <http://www.ege.edebiyat.org>. Учебная лексикография.
2. <http://www.edunet.tn>. Школьные словари.
3. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).
4. <http://www.labirint.ru/authors>. Введенская Л.А.